Seksual disfunktsiyaning kelib chiqishida infeksiya faktor ham muhim hisoblanadiki, qachonki infeksiya prostatitlar rivojlansa, bu to'g'rida biz yuqorida to'xtaldik.

Seksual sog'lomlik

Jamiyatda shunday fikrlar borki, erkaklarning seksual kuchi genetik va tug'ma qobiliyatlariga bog'liq deyishadilar. Bu qisman ehtimol to'g'ri.

Albatta genetik faktorlar shubhasiz muhim ahamiyatga egadir. Ammo hamma bu faktorni to'g'ri realizatsiya qilolmaydilar, yoki boshqacha qilib aytganda, ayrim kishilar o'z kuchi orqali o'zining seksual potentsiyasini kengaytirishlari mumkin. Bundan tashqari, har bir insonda o'zining umumiy seksual potentsiyasini kengaytirishlari mumkin. Vaholanki har bir insonda o'zining umumiy seksual sog'lig'i bor.

Umumiy seksual sog'liqni qanday tushunmoq kerak? Erkaklarda seksual sog'lomlik uning umumiy hayotining yaxshiligi bo'lib, uchta asosiy tarkibdan iborat: ruhan tetiklik, odamning seksual madaniyati va umumiy sog'lomligidan. Reproktiv sferasining davrida odamning jismoniy sog'lomligi uning fiziologik seksual faoliyatini ta'minlaydi: bular qon aylanishi, tomirlar, umurtqalar, asab yo'llarining o'tkazuvchanligi.

Ana shunday seksual fiziologik yaxshi holatni saqlash uchun bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ratsional hayot tarzi, to'liq jismoniy faollik va to'g'ri ovqatlanishni tashkil qila bilish kerak; shu bog'liqliklarning ichida to'g'ri ovqatlanish ham muhim ahamiyatga ega. Ateroskleroz, ortiqcha tana vazni (semizlik), qandli diabet, arterial gipertenziya - ana shu 4 ta "o'lim kvarteti" qachon bo'lmasin jinsiy kuchsizlikka - impotensiyaga olib keladi va uni rivojlantiradi. Bu borada aytish kerakki, ijtimoiy-madaniyat faktorining ham ahamiyati yuqori.

Seksual sog'lomlikning ijtimoiy-ma'daniy asoslari

Jahon Sog'liqni Saqlash ashkilotining bergan ma'lumotiga asosan, "seksual sog'lomlik" terminining ma'nosi shunday: Odamning seksual yashashi uning kompleks holda somatik, emotsional, intellektual va ijtimoiy aspektlari orqali uning kommunikativ qobiliyatini va sevgiga bo'lgan pozitiv qobiliyatini boyitishdir. Seksual sog'lomlik qo'rquvdan erkin, uyat va har xil yolg'on ruhiy holatlardan qutulgan holda yashashdir.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'ruzasida aytilganki, seksual sog'lomlikka erishishning eng yaqin yo'li seksilogik madaniyatni o'stirishdir.

Hayotda ikki jins- er va xotin orasida bo'ladigan jinsiy aloqa avlodni davom ettirish uchun o'tkaziladigan faoliyat deb tushunadigan bo'lsak, asta-sekinlik bilan o'zining aktualligini yo'qotib, zerikarli holatga aylanib qolishi mumkin, shuni ta'kidlash zarurki, seks bu hayotdan oladigan qoniqish, lazzatlanish ham hisoblanadi.

Ayrim holatlarda seks o'zimizning intim munosabatlarimizni qoniqtirish maqsadida jamiyatda qabul qilinmagan, qoralanadigan holatga o'tib ketishi mumkin.

Bu holat tasodifan, kishida yuzaga chiqadigan va tez o'tadigan holatning natijasi deb ham o'ylash mumkin. Bunday holatlar odam ko'ngliga mayinlik ham keltirmaydi.

Shuni izohlash kerakki, bunday seks ko'pchilik holatlarda qo'rquv sezgilarini paydo qilib, o'zining va yaqinlarining sog'lig'iga xavf tug'dirishi, ruhiy hamda jismoniy muammolarga asosiy manba bo'lishi, ayniqsa reproduktiv sohada muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ana shunday seksilogik madaniyatning yo'qligi bir-birini sevadigan kishilar o'zlarining seksual muammolari to'g'risida suhbatlashishlariga uyalib qoladilar. Bu holatlar o'z navbatida oralarida psixologik bar'er kelib chiqaradi, bir-biriga bo'lgan muhabbat yo'qolib, ular ajralib ketishlarigacha olib keladi.

Seks so'zining etimologiyasi va leksik ta'rifi jinslarning ko'rinishidir. Har xil vaqtlarda va xalqlarda hayotning bu qismiga aybdor deb qaralgan, hatto gunoh deb ham hisoblaganlar. Ammo odamzod rivojlangan, ular orasidagi eng kuchli, tug'ma instinkt - jinsiy aloqadir. Agar shu instinkt tabiat tomonidan berilmaganda edi, odamzod jinsi yo'qolib ketgan bo'lar edi. Vaholanki, baxtimiz uchun odamlarda bu instinkt saqlanib qolgan.

Ko'pchilik erkaklar o'zlarining faollik davrida ko'p chekadilar, har xilchilikka beriladilar, ko'p ovqat iste'mol qiladilar, jismonan va ruhan kuchsizdirlar, ayrim holatlarda jahldorlar. Hayron bo'lmaslik kerakki, ayollarning shu xil erkaklar bilan muhabbati va seksual to'laqonli munosabati to'g'ri kelmaydilar. Ko'pchilik erkaklarni ayollarga bo'lgan munosabatidan bilish mumkin. Seksdan kuchliroq emotsional holat bo'lganda, seksual energiyasi kuchliroq bo'lib, erkaklik potensiyasi yuqori bo'ladi va oqibatda erkaklik faolligi uzoq yillar davom etishi mumkin. Bunday jismoniy holatning saqlanishida genetik faktorlar, sog'liqning holati, ayniqsa Sharq mamlakatlarida muhabbat san'atiga bog'liq bo'lgan munosibati deb hisoblaydilar. Ana o'sha muhabbat san'atini qo'llay bilish kerak.

Qadimgi sharq donoliklari hozirgi zamon odamlariga, xususan Evropa xalqiga Sharq o'zining falsafasi bilan xuddi boshqa sayyora kabi tuyuladi. Masalan, Xitoyda yoki Hindistondagi 2000 yil oldingi tibbiyotni endi tushunmoqdamiz. Hozirgi dunyoda 45 madaniyat odam organizmida u yoki bu holda seksual hamda ruhiy energiya spektri borligini tan olganlar.

Shunday qilib, Xitoyda hayot energiyasini "si", Yaponiyada "ki", Hindistonda "prana" va Ivritda "pyax" deyiladi. Evropa madaniyatida hayotiy kuch yoki energiya tushunchasi umuman yo'q. Shuning uchun ularda seksilogik madaniyat va seksual o'zaro munosabat degan bilim yo'q. Ma'lum madaniyatni olmay va odamning seksual sog'lig'ini, uning qoidalariga asosan rioya qilinmaganligi sababli Evropa tibbiyoti imkoniyatlari ayrim surunkali kasalliklarni davolash va uni profilaktika qilishda chegaralandirlar, huddi shunday seksual munosabatga ham. Zamonaviy ayollarda emansipatsiya bo'lganligi uchun va ular "erkin" bo'lib muhabbatga nisbatan faol bo'lib qolishlari tabiatan ularda ko'rsatilmaganligi sababli, seksual jinsiy o'zaro munosabatlarda jins holatining yo'qolisi, erkaklarning ustunlik roli yo'qolmoqda. Bu esa noxush holatlarga olib kelmoqda, ularning sog'lig'iga yomon ta'sir qilmoqda. Shuning uchun ham G'arb mamlakatlaridan farqli ravishda Sharqda seksual munosabatlarni sog'liq uchun va uzoq umr ko'rishda muhim hisoblagan.

Seksuallikda Daos falsafasi

Masalan, Xitoyda azaldan Dao falsafiyasi qo'llanilgan. "Dao" so'zi - tabiatning hamma jihatdan donoligi hisoblanib, eramizdan avvalgi VI asrlarda sharq muallimi Konfutsiy-Lao-Tszı tomonidan qabul qilingan va o'zining "Dao De Tszin", ya'ni "Mehribonlik ko'rsatis yo'llari" kitobida keltirgan. Bu kitobni jamiyat 2500 yildan buyon qimmatli yodgorlik sifatida saqlab kelmoqda. Bu fiziologik ta'limot odamning sog'lomlanishi va zehn tetikligini saqlashda katta bilimga ega.

Dao falsafasi seksuallikda global yo'nalish ta'limoti bo'lib, odamning sog'lig'ini uning seksual xususiyatidan ajratmagan. Dao muallimlari vrachlari bo'lib, energiya kuchini seksual munosabatda garmoniya holida tushunib, uning sog'lig'iga yaxshi ta'sirini aytganlar. Ular o'zlarida amaliy jihatdan qo'llab, o'z mijozlariga seksual texnikasini o'rgatganlar.

Shuni ta'kidlash zarurki, hozirgi bizning jamiyatimizda seks madaniyati to'g'risida tashviqot ishlari yo'q. Agar biz seksopatolog vrachlarimiz bor deb hisoblasak, bu muhim muammoning odamdagi normal holati qandayligi, odam sog'lig'iga ta'siri, uning patologik holatini oldindan ogohlantirish masalalarini qayerdan va kimdan o'rganish yo'lga qo'yilmagan. Shuning uchun ham Daoscha mehribonlik yoki Daos seksual falsafasi Xitoy milliy tibbiyotining asosiy tarmoqlaridan bo'lib, odamning seksual holatini uning sog'ligidan ajratmagan.

Afsuski, hatto tibbiyot oliy ta'lim dargohlarida ham hozirgacha bu to'g'risida o'qitilmaydi. Shunga qaramay, AQSHda ilmiy tekshirish ishlari olib borilib, Dao seksilogiyasi tekshirishdan o'tdi va haqiqatan muhim hisoblandi.

Hatto o'sha Xitoyda ham bu muammo yuz yil oldingi holatida ekan. Hamma Xitoy xalqi baxtli emas, uzoq ham yashamaydi. Bu ta'limotning hammasi muhimligi shundaki, "o'zining donolik uyiga taklif qilmay, bizni o'zimizning aqliy chegaramiz ostonasiga olib boradi". Bizning fikrimizcha, bu qadimiy o'ta muhim ta'limotni o'quvchilar bilan tanishtirish kerak.

Birinchi: Agar hozir biz xoxishimizni libido desak, sharqda buni seksual energiya deb ataladi. Bu energiya odamning umumiy hayot kuchi va kuchli oziqlanadigan manbaga ega. Odamning reproduktiv tizimi esa o'z navbatida, qadimgi ta'limotga asosan tananing bosh energiya markazi joylashgan bo'lib, hamma hayotiy „si" kuchini generatsiya qiluvchi va saqlovchisi hisoblanadi. Shuning uchun har qanday sog'lom seksual holat umumiy organizmni kuchaytiradi - jismoniy, ruhan hamda emotsional jihatdan kuch bag'ishlaydi.

Albatta, seksual erkaklar va uning libidosi erkakning nafaqat jismoniy, hatto liderlik sifatidir. Shuning uchun ham qadimgi Rimda harbiylikka va legiona olishda erkakning seksual potensiyasiga albatta e'tibor berganlar.

O'ta muhim katta yuklama bilan ishlash, oilaviy tashvishlar, stresslar, zararli odatlar shu energiyani susaytiradi, vaholanki kishining jismoniy va emotsional sog'lig'iga ta'sir qiladi. Shunga qarama-qarshi, muhabbat ruhiy energiya mashg'ulotlari va texnikasini (seksual tajribasi bilan) davolash energiyasini oshirib, erkaklik potensiyasini kuchaytiradi, ishlash qobiliyatini oshiradi, tanasini va ruhini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan: Seksual munosabatlarni Daoistiklar eng muhim ruhiy amaliyot hisoblaydilar, ruhan kishilar bir-biriga muhabbat bilan yaqinlashib, ruhan birlikga ega bo'ladilar. Bir-biriga o'zaro muhabbat bilan qarash muhim energiya almashish va seksual energiya hosil qilish, asosan juda nozik yurak, aql va ruhiy energiya paydo qilishdir.

Ota-onalardan nasliy beriladigan seksual energiyasi bolalarda tug'ma hayotiy kuch sifatida yuzaga chiqadi. Shuning uchun daoislik donishmandlar yaxshi bilmagan, bir-birini hurmat qilmagan, sevmagan kishilar bilan intim munosabatda bo'lishdan saqlanganlar. Chunki unday odamlar bilan emotsional va ruhan energiya almashishda qatnashgan bo'lasiz. Shunday ekan, sherikni tanlashda siz o'zingizning taqdiringizni, ya'ni umuman o'zingizning sog'lig'ingizni tanlaysiz.

Ruhiy energiyaning muhim manbai sifatida daoistik faylasuflar muhabbatni ko'radilar. Qachonki muhabbat seks energiyasi bilan qo'shilganda, "mustahkam" oziqlantiradigan energiya hosil qilib, bir-birini sevadigan, bir-biriga yaqin, ruhiy energiya rivojlantirib, quvonch, hayotda baxt paydo qiladi. Vaholanki, bugungi kunda ko'pchilik odamlar

o'zining seks energiyasini ruhiy rivojlanish va ochilishga qo'llay olmaydilar, xolos jinsiy akt oddiy mexanik bajarilma bo'lib qoladi.

Uchinchi: Daoistiklar ishonadilarki, seksual amaliyotning maqsadi ejakulyatsiyaga emas, sheriklarini jismoniy va emotsional qoniqtirishdir. Bu har xil ikkita fiziologik holatlardir. Agar orgazm asosan jismoniy va emotsional hayajonning kulminatsiyasi, bu asosan miyaning faoliyatiga butun tananing javobi bo'lsa, ejakulyatsiya esa umurtqa va mushaklar qisqarishi bo'lib, urug' chiqarish bilan tamom bo'ladi. Bu ikki holat bir necha soniya ichida yuzaga chiqadigan bo'lsa, ularni adashtirib qo'yish oson.

Sharq ustozlari ta'kidlaydilarki, ejakulyatsiyani nazorat qilish va uni vaqtincha kechiktirish kerakligi, chunki urug'ni yo'qotish erkakning hayotiy energiyasini va uning kuchini yo'qotib qo'ymay, butun organizmni, uning ijodini zaiflashtiradi, hayotini qisqartiradi. Shunga qarama-qarshi, ejakulyatsiya siyrak bo'lsa, erkakning organizmini mustahkamlaydi, seksual energiyasi oshadi va potensial holati ko'tariladi. Ana shu aytilgan fikrlar hozirgi fan tomonidan tasdiqlangan.

Qadimgi Xitoy vrachlaridan, juda uzoq umr ko'rishi Sun Syo Myo bir necha asr oldin tavsiya qilganki, 40 yoshli erkak 10 kunda 1 marta urug' chiqarishi, 50 yoshida 20 kunda 1 marta va 60 yoshli erkaklarga umuman urug' chiqarish mumkin emas deganlar. Bizningcha, har bir erkak o'ziga qarab urug' chiqarishni tanlashi, hozirgi mutaxassislar fikricha 2-3 marta har 10 harakatda. Bu oqilona maslahatlarga yoshi o'tgan kishilar albatta e'tibor berishlari kerak, chunki o'z organizmining resurslarini saqlab qolish - uzoq umr ko'rish kafolatidir.

Ejakulyatsiyani nazorat qilish uchun har xil texnik yo'llari bor. Daoistlarning tavsiyasi bo'yicha va hozirgi zamonaviy talablar bo'yicha optimal muddat 2- 4 hafta demoqdalar.

To'rtinchi: Ayollarni qoniqtirish eng muhim hisoblanadi, bu qadimgi Xitoyliklar falsafasi bo'lib muhabbatning asosini tashkil qiladi. Daosliklar fikricha, seksual garmoniya tabiatning tuganmas kuchi bo'lib o'zing sveysual chizig'iga ega. Jinsiy xususiyatlari: er-ayol, in; osmon-erkak, yan. Ana shunday bog'liqlik birlikni tashkil qilib - garmoniya va dunyo bir butundir.

Ejakulyatsiyani to'xtatish texnikasi qadimgi Xitoyda rivojlantirilgan, xususan sherikni (ayolni) qoniqtirish bo'lib, haramdagi muhabbat uchun aktual bo'lgan. Dunyo bugun monogamiyaga qaytmoqda. Bu o'ta muxim, sog'ligini saqlash ehtiyot chorasidir.

Bundan tashqari, seksual energiyaning soni muhim emas, uning sifati kerak. Agar siz o'zingizga ma'qul ayolni topsangiz, agar u ayol sizga jismoniy energiya va hissiy lazzat bera olsa, bu kuchli ruhiy ijobiy o'sish bo'ladi.

Beshinchi: Seksual amaliyot oxirgi kungacha davom etishi kerak, chunki yoshaytirish qobiliyatiga ega. Sharq falsafasida to'laqonli va uzoq muddatli seksual faollik haqiqiy yoshlik manbai hisoblanadi. Bu faoliyatning hammasini Xitoy donishmandlarining

aytishicha, doimiy ravishda amaliyot, ruhan va tana sog'lomligi bilan amalga oshirish mumkin.

Seksual faollikni doimiy saqlash uchun sizning qorningizdagi, son va dumbangizdagi katta mushaklari yordam beradi. Seks odamning jismoniy sog'lig'iga, yurak-qon tomirlariga, albatta ruhiy-emotsional quvvatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamonaviy tekshirishlar shuni takidlaydiki - suvda suzish, velosipedda yurish, ertalabki gimnastika, faol harakat sog'likka yaxshi ta'sir qilsa-da, faol seksual hayot qarishning oldini olishda muhim, almashtirib bo'lmaydigan sharoit bo'lib hisoblanadi.

Bizning hayotimiz shunchaki chiroyli va sermazmun o'tishida albatta sevgi, muhabbat degan nozik hissiyotlarsiz tassavur qilish qiyin.

Ulug' italyan adibi Dante Alligeri aytganidek, muhabbat "quyoshni butun yoritqichlarni joyidan qo'zg'atishga qodir" deganlar.

Agar haqiqatdan ham shunday hissiyotga ega bo'lsangiz, har narsani tahlil qilmay, ma'qulini yoki noma'quliga qaramay qabul qilishga tayyorsiz - buning nomini muhabbat deyдилar. Qanchalik sog'lom fikr bilan muhokama qilganingizda ham, haqiqiy muhabbatdan, sevgidan kechmaysiz. Sevgi, muhabbat olloh tomonidan berilgan in'om, hamma ham buni tushuna olmaydi. Buni Sharq qadimgi falsafasi bizga o'rgatgan. Ulug' Seneka aytgan: "Kamalakning hamma ranglaridek to'la ko'krak bilan nafas olib, bir kun muhabbat bilan yashash, butun hayotda loyqa oqimda va bo'lmagan rangda yashashdan afzaldir. Ko'rdingizmi, muhabbat qancha turadi".

Haqiqiy muhabbat, sevgi oddiy bir hissiyot emas, ko'p odamlar seksual hayotda sezgi shart emas deyishadilar, shuning uchun ham seksni bizning muhabbatimiz, jinsiy aloqadir.

Sharq donishmandlari sevgi - bu yurakning jismoniy energiyasi deyishadilar, shuning uchun ular shaxsan o'z yuragingizda sevgi energiyasini rivojlantirishingiz kerak. Demak - sevgini o'rganish kerak.

Tabiat qonuniga bo'ysunsak. Sharq faylasuflari hayot davrini yilning o'zgaradigan fasllariga, bahor, yoz, kuz, qishga o'xshatadi. Ana shu yilning fasllariga o'xshab, odam ham qariganida ikkinchi bahorni yashashi mumkin. Bunda odamning uzoq yashashi, ya'ni uzoq umr ko'ruvchi kishilar to'g'risida demoqchimiz.

Kishilarning bu yashash davrini Xitoy faylasuflari yoshning kechki keksaligi deyдилar.

Jismoniy va ruhan sog'lom erkakda bu davrida sperma ishlab chiqarish faoliyati pasayadi, testosteron sathi ham pasayadi, bu asosan erkakning reproduktiv faoliyatiga ta'sir qilib (avlod qoldirish), jinsiy qo'zg'alish tezligi susayadi.

"Seksual kuchi" uning son parametrlari bilan aniqlanmaydi. Seksual kuch erkaklarda sherigini (ayolini) va o'zini qoniqtirish qobiliyati bilan o'lchanadi. Bu qobiliyatni butun

umri davomida rivojlantirish kerak. Agar erkak organizmi sog'lom va uni ta'minlashda kerakli faktorlar (oziq-ovqat) mavjud bo'lishi shart. Vaholanki, bu saqlanishi mumkin, shuning uchun Sharqda seksni ruhiy reja amaliyatiga kiritib, uni yoshi kattalashgan sari rivojlantirish kerak deyiladi.

Bizning madaniyatimiz bo'yicha katta yoshdagi ayollarda keksa yoshligida seksga bo'lgan qiziqishi yo'qoladi. Qachonki menopauza boshlanganda, ko'pchilikda birdaniga jinsiy qiziqish paydo bo'ladi. Buning sababi, menopauza paytida ayollarda jinsiy gormonlar pasayadi, testosteronning ta'siri kuchayadi, chunki testosteron gormoni hamma vaqt ayollar organizmida mavjud. Ayollarda estrogen fiziologik qarishga olib keluvchi bo'lib, uni to'ldirish mumkin va zarur hisoblanadi. Buning uchun fioestrogenlarga boy o'simlik moddalarini tavsiya qilish, ya'ni BFQ (biologik faol qo'shimchalar) ni o'ziqa xos moddalariga qo'shish kerak. Umuman olganda, erkaklar va ayollar orasidagi moslik yoshiga qarab oshib boradi.

Sharq falsafiyasiga asosan, yoshi oshib borgan sari erkaklar in-ga, ayollar yang-ga aylanadilar, ularning bir-biriga bo'lgan o'zaro yaqinlashishi pasaymaydi. G'arb mamlakatlarida qari yoshdagi kishilar orasidagi muhabbat zerikarli va qiziqishning yo'qolishi deb hisoblanadi. Sosiologik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, qari juftliklarning faol seksual hayot kechirishi ularning sog'lomligi, faolligi, emotsional bardamligidan darak beradi.

Hozirgi biologik tekshirishlar ko'rsatdiki, uzoq davom etayotgan muhabbat (sevgi) odam organizmida endorfinlarni (tabiiy og'riqsizlantiruvchi hamda ruhiy stimulyatsiyalovchi) ishlab chiqarishini ko'paytiradi va yanada seksual faolligini kuchaytiradi.

Shuning uchun yaxshi bir maqol bor: "eng yaxshi muhabbat (sevgi) - eski muhabbatdir".

Shunday qilib, biz o'zaro seksual madaniyatning misolida ko'proq Sharq tabobatiga e'tibor berdik. Haqiqatan ham Sharqda hayotning hamma sohalarida va seksual hayotda har xil iste'mol qilishi mumkin bo'lgan moddalarni, efir moylarini oziqaga qo'shganlar, ular stimulyatsiyalovchi, organizmni mustahkamlashi, oziqa moddalarining sifatini yuqori darajaga ko'tarish xususiyatlariga egadirlar.

Ana shularni hisobga olgan holda, biz ham odamni sog'lomlashtiradigan, hayot energiyasini oshiradigan, seksual potensiyani kuchaytiradigan o'ziga xos moddalar to'g'risida axborot berishni foydali deb topdik.

Seksual erkaklar va ovqatlar

Qadim zamonlardan beri hamma mamlakatlar xalqi jinsiy ehtirosni saqlab qolish ba uni yanada tiklash vositalarini izlab kelganlar. Bu hodisa Odam (a.s) tomonidan Havvo (a.s)

ga olma taklif qilingan. Ana shundan beri insoniyat potentsiyani kuchaytiradigan oziqa moddalar, ichimliklar to'g'risida izlanishlar boshlanganlar.

Misol uchun, qadimgi Yunonlar askarlar uchun ularning kuchini mustahkamlashda yordam beradigan baliqni, uning ikrasini tavsiya qilganlar.

Baliq mahsulotlari ichida treska, sakkizoyoqlilar, ustritsa va ularni sarimsoq, piyoz va imbir bilan qoshib iste'mol qilish birinchi o'rinda turgan. Imperator Avgust paytida alohida o'rin tutgan baliq bo'lib, potentsiyani kuchaytiradi degan fikrga kelishgan. O'sha paytlarda o'simliklardan sarimsoq, piyoz, karam, petrushka, yalpiz, zafaron, gorchitsa eng muhim hisoblanganlar.

Baholanki hamma shunday sevimli moddalarni Sharqdan izlaganlar.

XVI asrda shayx Hafizaviy o'zining yozma ishlarida: "Kuch va muhabbat (sevgi) beradigan sakkiz narsani iste'mol qilishi kerak" degan. Bular tanaga sog'lik, xotirjamlik, tabiiy quvnoqlik, yaxshi oziqa, ayollar yuzining go'zalligi, jinsiy jozibadorlik beradi deganlar. Bu moddalarga harxil garmdori, sarimsoq, imbirlarni kritgan

Qadimgi hindilarda yoshlikni kuchaytiradigan sut, baliq sho'rvasi, sarimsoq, sabzi, karam, yong'oqni qo'shganlar. Keyinchalik shu moddalarga qo'shimcha kuydirilgan sariyog'ni ishlatganlar.

Ekaterina Medichi sarimsoq va artishokni juda ham yaxshi taom deb hisoblagan. O'sha paytdagi oxirgi kitoblarda artishokni seksual hissiyotni oshirish xususiyati sifatida qabul qilingan. Artishok to'g'risida ko'plab hikoyalar yurgan.

Artishok erkak va ayollarning tanasini qizdiradi degan xulosaga kelishgan. Bu o'simlikni qadimgi Rimda - imperator Neron paytida ham odam organizmiga yaxshi ta'siri borligini tushunganlar.

Amerikalik seksolog B. Robinson sarimsoq jinsiy ehtiyojni oshiradi deb yozgan. Shunday qilib, sog'lom oziq-ovqatlar odamdagi jinsiy faollikni oshiradi.

Afrodisiaklar

Hozirgi vaqtda erotik oziqalarga qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Odamning seksual sog'lomligini tashkil qilishda va ma'lum qo'zg'alish darajasiga erishishda yetarli darajada energiya hosil qilishi uchun kimyoviy reaksiyalar orqali amalga oshiriladi. Ana shu holatning to'xtovsiz kimyoviy reaksiyalarning o'tishi uchun organizmni kerakli moddalar bilan ta'minlash zarur. Bu oziqa tarkibida bir qator muhim biologik moddalar bo'lishi kerakki, ular organizmning faolligini va seksual faoliyatiga aktiv ta'sir qilishi kerak.

Ana shunday oziqa moddalarni, ularning tarkibiy qismlarini afrodiziaklar deyiladi. Bu nom go'zallik xudosi Afrodita nomiga qo'yilgan bo'lib, grek mifologiyasida muhabbat (sevgi), bahor va hayotni himoya qiluvchidir.

Afrodiziaklarga bir qator o'simliklar, hayvonlardan olinadigan moddalar kiradi, ular organizmning seksual faoliyatiga har xil ta'sir qilish imkoniyatiga ega. Bulardan birlari odamning energiya kuchining hosil bo'lishini ta'minlaydi. Bular asosan karbonsuvlar va yog'lar (asosan ko'p to'yinmagan) dan iborat bo'lib, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalarning so'rilishiga yordam beradi.

Bu holatning o'tishida yuqori sifatli suvning ahamiyati juda yuqori.

Boshqa guruh oziqa komponentlariga organizmning tuzilishi materiali sifatida muhim bo'lgan moddalardir. Bu moddalar yordamida jinsiy gormonlar, fermentlar, spermatozoidlar tashkil topadi, ularning almashinishi natijasida yana reproduktiv a'zolar to'qimalari, bir qancha seksual faoliyat uchun kerakli moddalar hosil bo'ladi. Bu guruh oziqa moddalariga oqsillar (aminokislotalar), minerallar, vitaminlar va vitamanga o'xshash, organik kislotalar, to'yinmagan yog' kislotalari va boshqa mikronutrientlar kiradi.

Uchinchi guruh oziqa moddalariga (eng kerakli) ular asosan reproduktiv a'zolari qon bilan ta'minlashni, asab-hissiyot holatni yaxshilash, ularning seksual stimulyatsiyasini ko'tarish kabi funktsiyalarni ta'minlaydi.

Keltirilgan oziqa modda guruhlari jinsiy faoliyat sohasi uchun o'ziga xos muhim hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, ularning maksimal ta'siri ularni kompleks va proporsional holda afrodiziaklarni ishlatilganda yuzaga chiqadi. Har xil vaqtlarda va turli mamlakatlarda afrodiziaklarga har xil moddalarni kiritganlar. Bugungi kunda reklamalarning ko'payishi natijasida ayrim sintetik moddalar ham afrodiziaklarga kiritilmoqda. Bu uncha yaxshi emas. Agar tarixiy ma'lumotlarni hisobga olsak, an'anaga kirgan oziqa moddalari va qo'shimchalarni afrodiziaklarga kiritish kerak.

Eng ko'p tarqalgan va ommaboplar: artishok, sarimsoq, piyoz, xren, selderey, qo'ziqorinlar, grek yong'og'i, asal, banan, imbir, rayhon, koritsa, limon sharbati, tuxum, ikra, krevetka, baliq, trufel, achchiq shokolad va har xil dorivor o'simliklar.

O'simliklardan: jenshen, ginkgo biloba, eleuterokokk, limonnik, exinatsiya, sarimsoq va aloe.

Tabiiy afrodiziaklar ruhiyatni qo'rquvdan qutqaradi, nafas olish faollashadi, umumiy gormonlar - xususan testosteronning sathi oshadi. Bundan tashqari, afrodiziaklar spazmolitik ta'sir qilib, kichik chanoq a'zolariga qon kelishini kuchaytiradi va reproduktiv tizimni yaxshilaydi.

Shuni eslatish kerakki, afrodiziaklarning har xil ta'sir mexanizmlariga egadirlar. Shunga qaramay, ko'pchilik erkaklar jinsiy holatni qo'zg'atish uchun, g'orsimon tananing qon bilan to'lishiga yordam beradigan moddalarni qabul qilishga harakat qiladilar. Bu holatni juda to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki seksual buzilishlar ayrim kasalliklarning oqibati bo'lishi mumkin. Oxirgi yillarda bunday holatlar 40 yoshdan keyin ko'pchilik kishilarda uchramoqda.

Erektile buzilishlar ko'pincha xolesterin va qondagi glyukoza miqdorining ko'tarilishi bilan bog'liqdir.

Bunday o'zgarishlarning hozirgi oziqlanishimiz madaniyatiga bog'liq bo'lib qoldi, chunki biz qabul qiladigan moddalar asosan tomirlar va asab tizimiga ta'sir qiladi. Shuning uchun seksual buzilishlarni profilaktika va tiklashda albatta oziqamizga biologik faol moddalarni kiritishimiz zarur.

Ular o'z vaqtida ortiqcha xolesterin va glyukozani bartaraf qilib, qon tarkibini yaxshilaydi, tomirlarni himoya qiladi.

Erektile buzilishlarning profilaktikasida BFQ (biologik faol qo'shimchalarning) ahamiyati

Bugungi kunda erektile funktsiyani stimulyatsiya qilishda qo'llanadigan zamonaviy ta'sir qiluvchi moddalar taklif qilinmoqda. Bu yangi preparatlar xohlagan erkaklarga qisqa muddatli ta'sir qilishi mumkin.

Shuni aytish kerakki, bu preparatlar seksual buzilishlarning asosiy kelib chiqish sabablarini butunlay hal qila olmaydilar, demak ularni butun hayoti davomida doimiy qabul qilishlari kerak bo'ladi. Biz yuqorida keltirdikki, seksual buzilishlarni "kvartet" kasalliklar sababchi ekanligi aniq. Shu sababli erektsiyaning buzulishi muammosiga yanada chuqur yondashish kerak deymiz.

Erektile disfunktsiyaning kelib chiqishini bartaraf qilish uchun keltirilgan kasalliklarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak, ular jinsiy disfunktsiyani keltirib chiqaradi. Erektisiyaning fiziologik fenomeni asosida g'orsimon tananing qon bilan to'ldirilishi tomirlar tarmog'iga bog'liqligi va uning asab tomonidan boshqarilishining yetishmovchiligi umumiy jinsiy seksual disfunktsiyaga olib keladi.

Eng ko'p, 75% mijozlarda tomirlarning jarohatlanishi va ularning innervatsiyasining buzilishi jinsiy erektile disfunktsiyaga olib keladi - bu kasallik umumiy modda almashinuvining buzilishi va surunkali stress bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, qon tomirlarida va reproduktiv a'zolarida yallig'lanish holatining kelib chiqishida organizmda infeksiya o'chog'ining mavjudligi bilan bog'liqligini ham esdan chiqarmog'imiz kerak. Shu holatni hisobga olib, yuqorida keltirilgan kasalliklarning rivojlanib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Qachonki klinik belgilarning rivojlanishi kasallikning ancha chuqurlashib ketganligini ko'rsatadi. Bizda aniq postulat bor: "kasallikning oldini olish yengilroq, uni davolashdan ko'ra".

Bugungi ilmiy izlanishlar ko'rsatmoqdaki, erektil buzilishlarga olib keladigan kasalliklar mexanizmida nosog'lom ovqat moddalarini iste'mol qilish bilan bog'liq deyiladi. Biz qabul qiladigan oziqamiz to'qimalardagi hujayralarni, tomirlar tizimini, qon va limfa tarkibini, immun tizimini, nihoyat ichaklardagi mikrobiosenozning holatini tartibga soladi.

Bundan tashqari, jinsiy sohadagi fiziologik holatlarga ham ta'sir qiladi. Vaholanki, shuni aytish kerakki, bugungi kundagi supermarketlarda, hatto qo'lda yetishtirilayotgan oziqa sifatida ishlatilayotgan moddalarda organizm uchun eng kerakli bo'lgan mikronutrientlar defitsiti yuqori.

Ana shu holatlarni hisobga olgan holda, ma'lum miqdorda biologik faol qo'shimchalarni ishlatish ayni muhimdir. Buni ko'p sonli vatanimiz va chet ellik olimlarning ilmiy izlanishlarida keltirmoqdalarki, erkaklarning seksual disfunktsiyasida biologik faol qo'shimchalar katta foyda bermoqda. Ularni zamonaviy natural afrodiziaklar bilan qo'shib ishlatish o'ta zarurdir. Ularni ishlatish qoidalarini yaxshi bilish kerak.

Shuning uchun biologik faol qo'shimchalar bugungi kunda har kuni qabul qiladigan oziqa ratsioniga kiritilishi kerak.

Shu maqsadda biologik faol qo'shimchalarni qo'llash yo'nalishlarini keltirdik:

- BFQ eng avvalo fiziologik holatlar uchun o'ta muhim bo'lib, ular jinsiy faoliyatni boshqaradi, erkaklarda seksual potensiyasini ta'minlab, organizmda testosteron sintezini stimulyatsiya qiladi. Reproduktiv a'zolarida qon aylanishini, ruhiy-emotsional fonni, asab qo'zg'alishini va optimal energiya hosil qilishni yaxshilaydi.

- BFQ potensiyaning pasayishiga sababchi bo'ladigan kasalliklarning profilaktikasini ta'minlaydi va ularning rivojlanib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

- BFQ erektil buzilishlarda effektiv korreksiya qiladi va jinsiy disfunktsiyani stimulyatsiya qiladi.

Testosteronni ko'tarishda: afrodiziaklarning ta'siri

Testosteron gormoni universal holatdagi gormonal tizimi bo'lib, nafaqat jinsiy faoliyatni boshqarmay, hatto liderlar va g'alaba qiluvchilar gormoni hisoblanadi. Bu gormon ruhiy-emotsional holatni, organizmda kuch va ruhni ko'taradi. Bu gormonning sintezini boshqarish har kuni iste'mol qiladigan oziqamiz orqali o'zimiz boshqarishimiz mumkin. Bir xil iste'mol qiladigan moddalarimiz testosteron sathini pasaytirishi mumkin, boshqa turlari esa uni hosil qilishni va faollashtirishlarini mumkin.

Masalan, juda o'tkir alkogol ichimligining katta bo'lmagan dozasi, tabiiy vinolar bu bosh gormonning hosil bo'lishini ko'taradi.

Ammo pivo ayollar gormonini hosil qilishni stimulyatsiya qiladi va ko'pincha odamni semirtiradi.

Pivoga qo'shiladigan xmel testosteron gormonining ishlab chiqarilishini susaytiradi.

Ma'lumki, deyarli ko'pchilik erkaklar go'sht mahsulotlariga o'ch. Bu tasodif emas albatta.

Qonning ximizmi xatosiz ko'rsatadiki, ya'ni oqsilga boy moddalardan iste'mol qilish o'ta muhimdir. Erkaklardagi normal gormonal holati uchun oqsilli moddalar bilan oziqlanish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun yuqori baholanadigan oqsillarga boy go'shtli mahsulotlari bilan oziqlanish zarur chunki ular kerakli aminokislotalarga boy hisoblanadil va o'simlik oqsillaridan foydalanishlari zarur. Ammo shuni ham aytish kerakki, go'shtli ovqatlar yomon pishirilsa, undan hosil bo'ladigan indol, kresol, skatol kabi oxigrgi mahsulotlari ichaklarda ylg'ilib organizmga toksik ta'sir qiladi, hatto kanserogrogen moddalar hisoblanadi. Shuning uchun seksual faollikni, sog'lom uzoq umr ko'rish uchun tez so'riladigan oqsilga boy oziq-ovqatni tanlash zarur. Bunday foydali oziq moddalariga suv o'tlari, bug'doyning endi o'sgani bizda sumalak, asal, va boshqa o'simliklardan tayyorlanadigan moddalar, oqsilli gidrolizatlaridan, tayyorlangan aminokislotali komplekslari kiradi.

O'ta muhim foydali oziqa

Suv o'tlari, o'zining noyob tarkibiga asosan dengiz sabzavotlari deb atalishi bilan birga o'zida ko'p saqlangan biologik faol moddalarga boy.

Chuchuk suvda o'sadigan o'simliklarda ham biologik xususiyatlari baland moddalar mavjud, ammo dengiz o'tlaridek baland emas.

Misol uchun, spirulin - o'zida ko'p saqlaydigan protein va aminokislotalarga boy suv o'tidir. Spirulinaning tarkibida oqsillar juda ko'p aminokislotalarga boy. Bu o'simlikning foydasini qadimgi xalqlar yaxshi bilishgan. Masalan, Lotin Amerikasida spirulinni "muqaddas energiya manbai" deb ataganlar. Askarlarning asosiy oziq moddasi hisoblangan. Uning jangovar sifati undagi jinsiy gormonlarga boyligidir. Ana shuning uchun ham hozirgi paytda sportsmenlarning oziqlanish ratsioniga kiritilgan. Spirulindagi oqsillar organizmda hayvonlar oqsiliga qaraganda yaxshi so'riladi.

Hozirgi kunda nanoklaster texnologiyalari bilan tayyorlanayotgan spirulindagi oqsillarning effekti o'ta yuqori bo'lib, ularda parchalanishi bilan azot qoldiqlari umuman yo'q. Biz hozirgi kunda shu usulda tayyorlangan BFQ - spirulinni qo'llamoqdamiz.

Boshqa suv o'tlaridan - xlorella bo'lib oqsillarga boy, BFQ sifatida xlorodafilus hisoblanadi. Xlorofil oqsillarning maksimal so'rilishi uchun laktobakteriyalar moddalarining iste'mol qilinadigan ovqatlarda bo'lishi kerak. Laktobakteriyalar ichak tizimining asosiy mikroflorasi hisoblanadi. Ko'pchilik odamlarda surunkali defitsit holatida bo'lganligi uchun surunkali dizbakterio'z rivojlanadi va ko'chilik kasallarda prostatit rivojlanadi. Xlorella xuddi boshqa suv o'tlari kabi, ular to'g'ri o'stirilsa, ularning tarkibida jinsiy faoliyat uchun juda kerakli yod, selen, rux, kabi mikroelementlar mavjud.

Bu mikroelementlar organizmda reproduktiv tizim uchun muhim hisoblangan gormonlar sintezida qatnashadi.

Hozirgi kunda ayniqsa seksual buzulishlar yod defitsitida bo'ladigan gipotireoz bilan bog'liq. Organizmda rux va selenning yetishmovchiligidan testosteron hamda spermatozoidning sintezi buzuladi.

Ana shuni hisobga olgan holda, seksual sog'likni saqlash uchun oziqa moddalarini tabiatning bizga in'om etgan shu o'simlik preparatlari bilan boyitishimiz kerak. O'zimizning har kuni, juda bo'lmasa haftada bir necha bor tabiatning bergan in'omidan ovqatlik ratsionimizga qo'shishimiz kerak.

Erkaklarning seksual faoliyatiga yaxshi ta'sir qiladigan yana bir protein moddalaridan-asalchilik moddalaridir, gul changi kabi BFQ da "ko'k oltin" hisoblanadi. Perga (fermentlangan chang) va asal suti ko'k oltin hisoblanadi. Ana shu changdagi oqsil almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga boy, hatto sut oqsili (kazein) dan ham ustundir. Gul changi - vitaminlar va minerallarga ham boy manba'dir. Ulardagi fitogormonlar antibakterial ta'siriga ega. Bundan tashqari, gul changi o'sish stimulyatori hisoblanadi va organizmni yoshaytiradi.

Bu preparatning yana bir xususiyati, modda o'simlikning erkaklik gormoni mavjud, shuning uchun ham gul changi sportsmenlarning oziq ratsionida, prostatit va bepushtlikni davolashda, seksual buzilishlarda qo'llaniladi.

BFQ dagi "ko'k oltin" ya'ni gul changining bir sutkalik dozasi 300-600 mg. Uni qo'llagandan keyin aniq natijasi 1-3 oy ichida kuzatiladi. Davolashda 2-3 haftalik kursda, keyinchalik haftalik tanaffus bilan o'tkazilishi kerak. Bir yilda 2-3 oy kursi bilan reproduktiv davr kasalligida o'tkaziladi.

Odam organizmiga yana yaxshi ta'sir ko'rsatadigan - asal sut - bu asal tarkibidagi modda. Buni shohana jele, BFQ da "Aktivin" deyiladi. Bu asal ona suti moddasi - sigir sutidan 5 marta oqsil ortiq hisoblanadi. Uning antibakterial, antiparazitar, zamburug'larga qarshi ta'siri kuchli hisoblanadi. Bu sut moddasi tabiatan steril, chirimaydi, zamburug'lanmaydi. Bu modda o'zida gonadotrop ta'siriga ega bo'lib, jinsiy bezlar funksiyasini boshqaradi.

Testosteronni ishlab chiqarishda alohida ahamiyatga ega - vitaminlar E, B guruhi, albatta vitamin C.

Bundan tashqari testosteronni stimulyatsiya qiladigan adaptogenlar - jenshen, eleuterokokk, xitoy limonnik va boshqalar. Rossiyada ko'proq qo'llaniladigan - pustirnik va xren. Xrenni Rossiyada - rus jensheni deyiladi. Petrushka ildizi ham juda foydali hisoblanadi.

Bu moddalarni kompleks holda qo'llash yaxshi natija beradi. Shuning uchun BFQni kunning birinchi yarmida ishlatish (kechki paytlar situatsion stimulyatsiya uchun) 2-4 haftalik kursi bilan bir yil mobaynida qo'llaniladi. "Ko'k oltin", sarimsoq, ginkgo biloba bilan birga ishlatgan ma'quldir.

Shunday qilib, testosteronning sathini bir me'yorda tutish uchun kerakli darajada tabiiy holdagi mahsulotlar mavjud. Kishilar bilishi shart: spirtli ichimliklar istemol qilish, chekish, istemol qilish, kam harakat organizmdagi hamma gormonlarni, xususan testosteronni ishlab chiqarishini susaytiradi. Shunga qo'shimcha holda, oziqa sifatini yaxshilash va fizkultura bilan shug'ullanish yaxshi yordam beradi.

Eretil disfunktsiyada biologik faol qo'shimchalarning ahamiyati

1. Tomirlar kasalligining va ularning buzulishi hamda umumiy modda almashinuvining profilaktikasida BFQning ahamiyati

Hozirgi zamonda insoniyat uchun eng xavfli kasalliklar - bu moddalar almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga chiqadigan kasalliklar hisoblanadi. Bularning ichida eng avvalo ateroskleroz va semirishdir. Ana shu kasalliklar orqali yurakning ishemik kasalligi, qandli diabet II tipi va arterial gipertenziya kelib chiqadi.

Bu kasalliklar nafaqat jinsiy disfunktsiyaga olib kelmay, balki eng ko'p tarqalgan to'satdan yosh erkaklarning (35 va undan keyin) o'limidir. Nima uchun shunday? Chunki har bir erkak to'yib ovqat iste'mol qilish, uning ustiga yog'li, shirinliklar bilan iste'mol qilishni yaxshi ko'radi. Demak, ularda ortiqcha yuk paydo bo'lib, kam harakat qiladigan bo'lib qoladilar. Bu hamda spirtli ichimliklarni ko'paytiradilar va surunkali gipodinamiyaga o'tadilar.

Spirtli ichimliklar - avvalo qo'shimcha yuk, ya'ni semirish, modda almashinuvining va erkaklik jinsiy gormonining buzilishiga olib, keladi. Spirtli ichimliklar birinchi navbatda jigarning va tomirlarining dushmani. Avvalo tomirlarni kengaytiradigan effekt bersa, keyinchalik tomirlar spazmiga olib keladi.

Hozirgi kunda odamlarda spirtli ichimliklarni doimiy iste'mol qilganlarida "tomirlari toza" bo'ladi degan fikrlar mavjud, bu xatodir.

Alkogol - tomirlarda ateroskleroz, ayniqsa yurak, miya va penial qon tomirlarida chuqur o'zgarishlarga olib keladi. Asta-sekinlik bilan dozasini oshiradi - hayot qisqaradi. Kasallanish ichuvchilar ichida 2-3 marta, o'lim esa 3-5 marta ko'pdir.

Shuning uchun alkohol suyuqliklarini ichmaslik, toza holda yrish sog'liqning kafolati va seksual hayotning quvonchidir.

Ana shunday noto'g'ri hayot kechirishning eng erta yuzaga chiqaradigan oqibati - bu jinsiy faoliyatning buzulishi va bepushtlikning sababchisi hisoblanadi.

Hozir 40 yoshgacha erkaklarning 40% bepushtlik bilan, 50 yoshdan oshganlarning 80% da bepushtlik kuzatilmoqda. Undan keyingi asorati - erektsiyaning yo'qolishi hisoblanadi.

Bundan keyingi bosqichlarda - qondagi aterogen "xolesterin" va glyukoza miqdori oshib, tomirlarni, penial arteriyalarni toraytiradi, qon bilan to'lishini buzadi.

Shuning uchun BFQ (biologik faol qo'shimchalarni) ishlatishning asosiy maqsadini quyidagicha izohlash mumkin.

- Aterogen lipidlarning qonda hosil bo'lish fraksiyasini profilaktika qilish

- O'z vaqtida glyukozaning utilizatsiyasini va uning ortiqcha qismini buyraklar orqali chiqarish. Agar buyraklar orqali chiqarilmasa, buyraketishmovchiligiga olib kelishi mumkin.

- Tomirlarning ichki qavatini himoya qilish

Bu maqsadni amalga oshirishda keng tarqalgan nutrisiologik moddalar - ular tarkibida nutrieiyntlar bor, undan tashqari parafarmasevtiklardan foydalanish kerak. Ular bir necha guruhlarga bo'linadi.

Birinchi guruh – kabonsuvlar, lipidlar almashinuvini korreksiya qiluvchilar.

Bu guruhga fosfatidilxolin, ko'p to'yinmagan yog' kislotalari va proteolitik fermentlar kiradi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun B guruhi vitaminlari va oziqa tolalari tavsiya qilinadi.

Fosfatidilxolin, lesitinning asosiy komponenti bo'lib, kuchli emulgator, qondagi lipidlarning bir xilda saqlanishi va ularning xolesterin blyashkalarini hosil qilishiga yo'l qo'ymaslik, trombositlarning agregatsiyasini pasaytirish va qonning reologik xususiyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, fosfatidilxolin juda yaxshi gepatoprotektor bo'lib, jigarining karbonsuvlar va lipidlar almashinuvida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Oziqa moddalardan soya, araxis, tuxum, jigar fosfatidilxolonga boy hisoblanadi. Bu moddalarga alternativ holda soya lesitini bo'lib, uning tarkibida kompleks fosfatidilholinlar bo'lib, ko'proq fosfatidilenozitlar va fosfatidiletanolamin bo'ladi. Oziqaga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalardan lesitin-xolin - ma'lum texnologiyalarni ishlatilishi bilan fosfatidilxolin konsentratsiyasini oziqa oshiradi, ular tarkibida to'yingan yog' kislotalari

bo'lmaydi. Lesitinning tavsiya qilinadigan dozasi 1200 mg/sutka ovqat paytida kapsula holida qabul qilish mumkin.

Ko'p to'yinmagan yog' kislotalari (KTYK)

Bu guruhga omega-3 kiradi, chuqur suv havzalarida yashaydigan baliq yog'larida bo'ladi.

Uning ta'siri ko'p tarmoqli bo'lib, asosan erkaklarning jinsiy faoliyatiga ta'siri muhim hisoblanadi. Hozirgi sharoitda har kungi oziqamizda tomirlar kasalligini keltirib chiqarish havfi bo'lganda, ko'p to'yinmagan yog' kislotalarining ahamiyati katta bo'lib, almashtirib bo'lmaydigan faktorlardan hisoblanadi. Asosan ularning ta'siri qon tarkibini va tomirlar devorini mustahkamlaydi. Ularning bu xususiyatlari KTYK metabolitlari (organizmda ulardan hosil bo'ladigan moddalar) trombositlar membranasi optimallashtirib, ularda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan agregatsiya va tromb hosil qilishni to'xtatadi va shuning bilan qonning oqish xususiyati kuchayadi.

Bu moddalarni ishlatishda antiagregant effekti paydo bo'ladi, uni aspirinning ta'siri bilan tenglashtirish mumkin. Aspirindan farqi KTYKning ta'siri mutlaqo fiziologik yo'nalishda o'tadi.

To'yinmagan yog' kislotalarning ta'siri ostida tomirlarda kengayish bo'lib, eritrotsitlarning faolligi oshadi, to'qimalardagi hujayralar glyukozani qabul qilishi kuchayadi, nihoyat to'qima va a'zolarining kislorod va energiyaga ta'minoti ko'tariladi.

KTYKning eng muhim effektlaridan yana antiaterogen xususiyati bo'lib, "yomon" og'ir aterogenli lipoproteidlarning hosil bo'lishiga to'siq bo'lishidir. KTYKning oziqa moddalarida bo'lishi tomirlarda aterosklerotik o'zgarishlar bo'lishi havfini susaytiradi. Xulosa qilib aytganda, tomirlarga ta'sir qiluvchi bu klass nutritsiologik moddalarning xususiyatlari o'ta muhim bo'lib, reproduktiv a'zolarining tomirlari tozaligini, qon oqishini mutadil ushlab turishi va ereksiya mexanizmiga optimal ta'sir qilishidir. KTYKning natural manbai sifatida BFQdan akula balig'ining jigari yog'i va omega-3/60 ni keltirish mumkin.

Bularni qo'llashda ularning profilaktik dozasi 2 kapsuladan 3-4 marta hafta mobaynida qo'llash. Agar erektil disfunktsiya paydo bo'lganda, ularning dozasi har kunga o'tkazib, kurs bilan qabul qilish va gepatoprotektorlardan lesitinni qo'shish optimal deb hisoblanadi.

Oziqa tolalari. Bu guruh nutritsiologik moddalarning ahamiyati katta. Qaynatilmaydigan ayrim oziqa moddalarida (sitruslar, olma, kartoshka po'stlog'i, suv o'tlari, bug'doy kepagi va boshqalar) tabiiy o'simliklarda bo'lib, ular ichaklarni toksik moddalardan tozalaydi, ularning harakatini stimulyatsiya qiladi. Oziqa tolalari ichaklardan katta miqdorda yomon ta'sir qiluvchi zaharli moddalarni chiqarib, asab va tomirlarni zahardan tozalab, o'z-o'zidan zaharlanishning oldini oladi.

O'simlik enterosorbentlari ham karbonsuvlar va lipidlar almashinuvini boshqaradi, ichaklardan ortiqcha glyukozani, xolesterin va lipidlarni chiqarib, "kvartet" kasalliklarning rivojlanishiga hamda potentsiyaning buzilishiga to'siq bo'ladi. Bundan tashqari, oziqa tolalari ichaklarda normal mikroflorani saqlab, disbiozdan, ya'ni organizmadagi infeksiya o'chog'ini bartaraf qiladi.

Kasalliklardan profilaktika qilish va sog'lomlashtirish maqsadida har xil oziqa tolalarini ishlatishda ularning alohida ta'sir qilish faoliyatini hisobga olish zarur.

Masalan, juda baland sorbsion xususiyatiga ega bo'lgan suvda eriydigan gemiselyuloza, o'simlik qatronlari va pektin bo'lib, katta miqdorda suv o'tlari, kanop, olmaning po'stlog'ida va sitruslarda ko'p miqdorda bo'ladi.

Bu moddalarning sorbsion xususiyati lipidlarga, glyukozaga, og'ir metallar toksinlariga suvda erimaydigan sellyuloza tolalariga qaraganda ancha yuqori hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni kombinatsiya holatida har xil tola turlarini ishlatish muhimroq hisoblanadi.

Ana shunday qo'shma holda tayyorlangan oziqa tolalariga "pro-volokno" kiradi. Bu moddaning alohida xususiyati shundaki, ular har xil faoliyat ko'rsatadigan oziqa tolalaridan tashkil topgan. Ular suvda eriydigan - pektin, qatron, erimaydigan - sellyuloza, ularning aralashmalari. Ana shunday aralashmalar baland detoksikatsion potentsialga ega.

Bug'doy o'smasi, ananas, antioksidant va yallig'lanishga qarshi effektga ega.

Yong'oq - antibakterial, oshqovoq urug'i, kanop urug'i parazitlarga qarshi faolligi mavjud.

Suvda eriydigan tolalarga xlorella, dengiz suv o'ti, spirulina va lyutserna (beda) kiradi. Ana shulardan lyutserna (beda) qondagi glyukoza miqdorini pasaytiradi.

Oziqa tolalari sifatida "fito-energiya" kokteylini ishlatish, undan tashqari bir qancha karam turlari muhim rol o'ynaydi. Karam libidoni kuchaytiradi, shuning uchun tibbiyotda jinsiy xususiyatni oshirish maqsadida foydalaniladi.

Shunday qilib, oziqa tolalarini organizmning sog'lomligi uchun, hamda seksual faoliyatni yaxshilash maqsadida hammasini ishlatish mumkin.

Ikkinchi guruh: Bu guruh moddalari qonning reologik xususiyatlarini yaxshilaydigan, tomirlar devorini mustahkamlovchi va angioprotektorlar bo'lib hisoblanadi. Shulardan suvni optimallashtiruvchilar: ginkgo biloba, qizil uzum urug'lari, gotu kola, proteolitik fermentlar, akula jigarining yog'i va vitamin E. Ginkgo biloba nafaqat tomirlar sog'lig'iga, ularda ateriosklerotik plaklar hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Gotu kola ruhiy-emotsional

holatni bartaraf qilib, stressga qarshi mustahkamlaydi. Vitamin E va akula jigarining yog'i impuls-larni tomirlar devoriga yaxshi o'tkazib, g'orsimon tanaga qon bilan to'lishini ta'minlaydi.

Gotu kola ruhiy-emotsional holatni yumshatadi.

Hammaga hozir ma'lumki, qonning aylanishida, uning hayotbaxshligi tomirlarda qonning, plazmaning oqishiga bog'liq, uni hosil qilishda ularning tarkibida suv borligini hisobga olish kerak. Bu mexanizm ancha murakkabdir. Agar organizmga suv o'z vaqtida tushmasa, tomirlarda turg'un holat kuzatilib, tromb paydo bo'lishi, aterosklerotik qoplamalar vujudga kelishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, organizmga tushgan hamma suvlar plazmaga aylanishi yuzaga chiqmaydi. Tushadigan suv o'zining parametrlari bilan talab qilinadigan holatiga to'g'ri kelmasa, uning singishi yomon bo'lib, foydasi bo'lmaydi. Unday suvlar organizmdan tez buyrak va ichaklar orqali chiqib ketadi. Aytish lozimki, hujayra va to'qimalarga mos keladigan suvlar bor, ular yengil so'riladi va tanada juda muhim faoliyat ko'rsatadilar.

Bunday suvlarni xalqimiz "tirik" suv deyishadi.

Bunday suvlar organizmda energiya hosil qilib, so'rilishi oson, hujayra va to'qimalarga kerakli hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan oddiy suvlarning ham xususiyatlarini o'zgartirish imkoniyati yaratildi. Shu maqsad uchun, optimizatorlar paydo bo'ldiki, hatto uy sharoitida oddiy suvni tirik suvga aylantirish mumkin. Masalan, alka-mayn (koral kango kukunidan tayyorlangan), gidroksil va mikrogidrin.

E'tibor bering. Organizmdagi glyukoza miqdorini kamaytirish uchun ko'p suv ichish bilan chiqarishga urin-mang. Qandli diabetda organizmdagi ortiqcha glyukozani buyraklar orqali chiqarishda buyrak tomirlarini jarohatlab, buyraklar faoliyatini buzib qo'yish mumkin. Ortiqcha glyukozani chiqarishning eng optimal yo'li - ichaklar orqalidir.

Uchinchi guruh. Bu guruh moddalari reproduktiv a'zolarga arterial qonning kelishini kuchaytirish xususiyatiga egadirlar. Ana shu holat uchun g'orsimon tanachalarda qon bilan to'lishini yaxshilash bo'lib, bu erektsiya fenomenini yaxshilashdir.

Parafarmasevtik moddalardan jinsiy a'zolarga qonning kelishini kuchaytiradigan xususiyatiga ega: ginkgo biloba, aloe vera, sarimsoq, piyoz, artishok.

To'rtinchi guruh. Bu moddalar semizlik va qandli diabetning ikkinchi tipida qo'llaniladi. Bunga BFQlar kiradi. Ularning funksiyasi metabolik holatlarni tezlashtiradi, hamda to'qimalarning retseptorlarini insulinga sezuvchanligini optimallashtirishdir.

Gipertoniyaning profilaktikasi va uning rivojlanishining oldini olishda **BFQning ahamiyati**

Erektillik faoliyatining buzilishida eng asosiy sabablaridan biri gipertoniya kasalligidir. Uning ko'rinishi qon bosimining yuqori darajada ko'tarilishi bo'lib, tomirlar tonusi o'zgaradi.

Qon bosimi uzoq vaqt baland bo'lsa, arterial qon tomirlari devorlari qalinlashadi, qon tomirlarini kengaytiradigan dorivor moddalarga reflektor ta'siri buziladi. Ana shu buzilishlar g'orsimon tananing qon bilan to'lishishi to'liq bo'lmay, erektsiya mexanizmi buziladi.

Ayrim holatlarda gipertoniya kasalligida qon bosimini tushirish ham qiyin bo'lib qoladi. Gipertoniya kasalligida bosh miyaga qonning kelishi yetarli (ishemiya) darajada bo'lmaydi. Buning sababi asab markazlarida giperaktiv holat rivojlanib, tomirlar tonusini boshqarish buziladi, arterial qon bosimi ko'tarilib ketadi. Bu holatga surunkali stresslar olib kelishini butun jahon fani tasdiqlagan.

Bosh miya o'zining oziqasini ta'minlash uchun qonni periferik qon tomirlaridan oladi, Bosh miya birinchi, hayotiy muhim a'zodir. Shuning uchun gipertoniya periferik qon tomirlarida, demak jinsiy tizimlarda ham bosim tushib ketadi. Bu holatni tiklash uchun sintetik tomirlarni kengaytiradigan dorilardan "Viagra" seksual buzilishlarda qo'llagan, ular vaqtincha effekt berganlar. Agar shu holatni shunday yo'llar bilan (erektil disfunktsiyani) davolasalar, unda bosh miya ishi yomonlashadi.

Demak, seksual buzilishlarni gipertoniya kasalligida bosh miyani davolashdan boshlash kerak. Eng muhim gipertoniya kasalligida nutrisiologik moddalar miyadagi qon aylanishini tiklaydi va ruhiy-hissiyatga ham yaxshi ta'sir qiladi. Bularga nanoklastarli ginkgo biloba bilan sarimsoq, gotu kola, vitamin E, vitamin kompleks B, o'tlar yig'indisi - 5, biologik faol moddalardan suvlarni optimallashtiradigan alkamayn va gidroseldir.

Bosh miyadagi asab markazlarida metabolik holatni yaxshilash uchun fosfolipidlar (lesitin-xolin), aminokislotalar - tirozin, triptofan, glyutamin, akula jigari yog'i yoki omega 3/60 tavsiya qilinadi.

Miyada energiya hosil qilish, g'orsimon tanada qon bilan to'lishini ta'minlash uchun koferment Q-10 va kompleks B vitamini kerak.

BFQning reproduktiv a'zolarining infeksiyon kasalliklaridagi profilaktikasidagi ahamiyati

Har xil infeksiyalar g'orsimon tanadagi tomirlarning endoteliyasini jarohatlashi mumkin. Bunday holatlar ko'pincha xlamidiyalar, mikoplazma, gonoreyada, ureoplazmada, stafilokokk, streptokokklar va ichak tayoqchalari bilan yallig'langanda kuzatiladi. Agar yana zamburug'lar bilan ham kuzatilganida yoki parazitlar bo'lganda surtma tayyorlash,

nativ qon preparatlarini tekshirish kerak. Infeksiya bilan yiringlash holatlari bo'lganda, albatta, antiinfeksion, antiparazitar davolash bilan birga fermentlar, immunoterapiya o'tkazilishi shart.

Eretil disfunktsiyada situatsion korreksiya qilishda BFQ larning qollanishlari

Agar yuqorida ko'rsatilgan kasalliklar bilan tomirlar yoki nevrologik kasalliklari bilan erektsiyaning buzilishiga olib kelinsa, kasallikning bu fazasida, albatta, ereksil funktsiyani qo'shimcha stimulyatsiya qilish zarur. Bugungi kun tibbiyotining imkoniyatlari katta, bitta ham erkak seksual buzilishlar bilan behuda bezovta bo'lishi kerak emas. Bugungi bozorda jinsiy disfunktsiyalarni stimulyatsiya qiladigan sintetik materiallardan tortib, ko'p komponentli BFQni oziqaga qo'shish imkoniyatlari mavjud.

Qadimda, "afrodiziaklar" ko'pchiligi zahar bo'lganlar. Qadimgi Rimda ana shunday moddalar bilan savdo qilinsa, qonun asosida jazolanganlar. Bugungi kunda ham ehtiyot bo'lish kerak. Har xil reklamalarga ham ishonish qiyin. Ko'pchilik hollarda stimulyatsiya ta'siri ostida gipertoniya krizisi, yurak yetishmovchiligi yoki priapizm (ko'p soatli og'riqli erektsiya) kabi kasalliklari bilan asoratlanib qolishlari mumkin.

Kimyoviy stimulyatorlar, ular medikamentlar hisoblanadilar

Hozirgi zamonaviy farmasevtika bozori situatsion stimulyatorlari bo'lib, ancha effektli preparatlar ishlab chiqilmoqda. Vaholanki, shuni aytish zarurki, ular hammasi bir xil ravishda ta'sir kuchiga ega bo'lib, natijada stimulyatsiya seksual ta'sirning bir sathda bo'ladi.

Agar buni aniqroq aytadigan bo'lsak, penial tomirlar endoteliasidagi azot oksidini ishlab chiqarish faollashsa, tomirlarni kengaytirish va g'orsimon tana tomirlariga qon kelishini kuchaytiradi. Uning fiziologik erektsiya mexanizmi ko'p qirrali bo'lib, ruhiy-emotsional, asab, gormonal boshqaruvlarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda ham moddalarning barchasi sun'iy sintez qilingan bo'lib, ta'siri toza simptomatik xarakterga ega bo'ladi. Ularning ko'pchiligi bemorlardagi qarama-qarshiliklarga to'g'ri kelmay qolishi mumkin. Masalan, yurak-qon tomirlari tizimi kasalliklarida ishlatiladigan dorivor moddalar tarkibida nitratlar borligi sababli erekil buzilishlar mavjud. Ulardagi erektsiyaning buzilishi yengil bo'lganligi uchun, ularga tabiiy biokorrektorlarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Natural biokorrektorlar va ozuqaga BFQning ishlatilishi

Biogen stimulyatorlar BFQning ingredientlari bo'lib, nafaqat erektsiyaning stimulyatori bo'lib qolmay, organizmning ko'pchilik o'zgarishlarida, xususan, seksual buzilishlariga

olib keladigan ko'pchilik kasalliklariga ham yaxshi ta'sir ko'rsatadigan moddalardir. Ularni ishlatishdagi xavfsizlik omillari ularni uzoq muddat ishlatish imkoniyati va effektivlik ta'sirini kuchaytiradi. Ulardagi ko'p komponentligi va har xil tabiiy moddalarni qo'shma holda ishlatish, xususan, BFQ bilan seksual har xil buzilishlarni effektiv holatda stimulyatsiya qila oladilar.

Erektile faoliyatini tiklashda ishlatiladigan biokorrektorlar

Zamonaviy bozorda hozirgi kunda qator o'simlik moddalari arsenali mavjudki, ular nafaqat jinsiy faoliyatni effektiv stimulyatsiya qilmay, ular tarkibida biologik faol moddalarga boyligi bilan reproduktiv sohaga, batamom butun organizmga har tomonlama ta'sir qila oladilar.

Nutriseytika va parafarmaseytika - BFQlar ingredientlarinig ajratilishlari shartli hisoblanib, o'simlik va hayvonlardan olinadigan moddalar - biz parafarmaseytika deb ataymiz, ularning davolash xususiyatlari juda baland bo'lib, ular tarkibida boy oziqa moddalari- ya'ni nutrientlar bordir.

Nutrisevtika

Universal oziqa moddalari tarkibiga kiritilgan oziqa faktorlarga ega bolgan hamma moddalar har kungi oziqa ratsioniga kiritilishi kerak. Ana shunday nutriseytikadagi moddalar – lesitin va ko'p to'yinmagan yog' kislotalaridir.

Lesitin - organizm uchun o'zining eng muhim xususiyati bilan yuqorida keltirilganlardan tashqari boshqa bir qator foydali xususiyatlari bo'lib seksual qo'zg'alishlarni asab tizimida regulyatsiya qiladi.

Lesitinning asosiy komponenti fosfatidilxolindan iborat, tizimli elementlardan iborat bo'lib, hujayralarning biomembranasi uchun protektori hamda asab hujayralari uchun ham muhimdir.

Fosfatidilxolin - bu xolinga boy manba bo'lib, asosan, asab hujayralari uchun neyromediatorlardan atsetilxolinni hosil qilishda muhim hisoblanadi. Atsetilxolin ta'sirida asab impulslarini seksual qo'zg'alishini bel-dumg'oza qismidan jinsiy sohaga o'tkazib, orqa miyaning g'orsimon tana tomirlari kengaytiriladi va urug' chiqarishni tashkil qiladi.

Shuni aytish zarurki, sinapslar hamma asab tizimga tarqalgan, ular xotira, xayol qilish, ruhiy-hissiy iztirob kabi muhim funksiyalarga mas'uldir. Shuning uchun tez-tez bo'ladigan stress holatlari, uzoq asablanishlar bu muhim mediatorning zahirasini tamom qiladi.

Har kungi hayotda bunday holatlar nafaqat xotirani, hatto libidoni (xohishni), shu bilan birga potensiyani susaytiradi. Ana shundan xalos bo'lish mumkin, qachonki ruhiy-emotsional holatning yomonlashishida va stresslar paytida atsetilxolinning zahirasini to'ldirish kerak bo'ladi. Buning uchun shunday oziqa moddalarini iste'mol qilish kerakki,

uning sintezini doimiy ta'minlash zarur. Bunday moddalarga - lesitin-xolin, vitamin B guruhi kiradi. Albatda BFQni oziqaga kiritish kerak.

Ko'p to'yinmagan yog' kislotalari

Tarixda shunday bir ishq egasi o'tganki, uning o'z siri bo'lib, o'z sevgilisi bilan uchrashishidan oldin foydalangan. Uchrashuvdan oldin iste'mol qiladigan modda- qizil ikra bo'lgan. Haqiqatan ham qizil ikra klassik afrodiziaklarga kiradi. Uning asosan yuqori qimmatbaho bo'lishi asosan uning tarkibida ko'p to'yinmagan yog' kislotalarining borligidir.

Omega-3 juda yaxshi energiya manbai hisoblanadi. Uning asosiy siri ko'p to'yinmagan yog' kislotalarining "seksual" ta'siri bolib potensiyani boshqarishidir.

Bu muhim yog'larning qizil ikradan tashqari chuqur suv xavzasida yashovchi baliqlarda: akula, seld, skumbriya, losos, treska, kambalada mavjud. Baliqning bu xususiyati hamma vaqt ham qo'zg'atuvchi oziqa hisoblangan. Ularni iste'mol qilish sir bo'lib qolgan, hatto uni qullarga berish man etilgan.

Ko'p to'yinmagan yog' kislotalariga boy manbalardan akula balig'ining jigaridan olinadigan yog'idir. Bu biologik faol qo'shimchaning boshqa xususiyatlari ham ko'p. Xususan, tarkibida tabiiy yodning miqdori ko'p bo'lib, qalqonsimon bezining faolligini oshirib, energiya hosil qilishda va modda almashinuvida katta ahamiyatga ega.

Akula balig'ining jigar yog'i infeksiyalarga qarshi tabiiy antibiotiklarga ham egadir. Uning nomi lotincha *Squalus Acantias* - skvalamin yoki skvalen deb ataladi. Ayrim tadqiqotchilar fikricha bu yog'ning antibakterial faolligi ampitsilindan ham baland deb hisoblaganlar, hatto zamburug'larga qarshi ta'siri bor. Bundan tashqari immunomodulyator hisoblanadi ayniqsa uning tarkibida alkigliserol bo'lib suyak iligi faoliyatini ko'taradi. Akula yog'i oq qon tanachalarini faollashtirib viruslar va boshqa infeksiyalarga ta'sir ko'rsatadi va immunitetni ko'taradi.

Albatta akula jigari yog'ini oziqaga kiritish kerak.

Vitamin E - muhim antioksidant, spermatogen epiteliylarni erkin radikallardan himoya qiladi. Vitamin E ishtirokida spermatozoidlarning ishlab chiqarilishi, fertil (spermaning tuxum hujayralarini urug'lantirish funksiyasini oshiradi) va erkaklik potensiyasi kuchayadi.

Vitamin E ning organizmdagi yetishmovchiligi reproduktiv a'zolarining generativ o'zgarishi natijasida steril bo'lib qolishiga olib keladi. Bu Vitamin E ning seksual sohaga yaxshi ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Vitamin E ni oziqaga kiritish kerak.

Rux - jinsiy aloqani kuchaytiradi, gipofizning gonadotropin gormonini, testosteron sintezini va sperma mahsulotini stimulyatsiya qiladi. Bundan tashqari reproduktiv fiziologik faollikni ta'minlaydi. Oziqa tarkibida rux moddasining yetishmovchiligi jinsiy rivojlanishni sekinlashtiradi. **Ruxning** oziqa moddalari ko'pligida libidoni (xohishni) erkak va ayollarda stimulyatsiya qiladi.

Vitaminlar B guruhi. Vitamin B₃ (niatsin) - qondagi xolesterinni pasaytiradi, arteriya va kapillyarlarda qon aylanishini kuchaytirib, kichik chanoq a'zolarida qon aylanishini muntazamlashtirib libidoni kuchaytiradi.

Vitaminlar B₆ va B₉ - spermatogenezda va testosteronning sintezida qatnashadi.

Vitamin B₁ - energiya hosil bo'lishini boshqaradi. Refrakter davrini (jinsiy aloqadan keyingi tiklanish vaqti) qisqartiradi.

B vitaminlar guruhini oziq-ovqatga qo'shish kerak.

Aminokislotalar - oqsil (yuqori baholanadigan va eng muhim manbai) organizmda testosteron, androgen va boshqa gormonlarning hosil bo'lishiga, spermatogenezni hamda jinsiy aloqadan keyingi refrakter davrini qisqartirish, urug' chiqarishdan keyin tezda tiklanishiga ta'sir qiladi.

Arginin - sitrulin - bu aminokislotalar ishtirokida organizmda oksid azot - endotelial relaksatsiya qiladigan faktor tomirlar tonusini tushirib, seksual tizimdagi arteriyalarda qon bilan to'lishini ta'minlaydi. Arginin urug' suyuqligida ham bo'ladi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, arginin yetishmovchiligi spermatogenez va jinsiy rivojlanishni sekinlashtiradi.

Arginin muhim aminokislota bo'lib, tana og'irligini kamaytirib, mushak massasini o'stiradi.

Arginin kokos, grek yong'og'ida, pista moyida, sut mahsulotlarida, sabzavot sharbatlarida, ovsyanka donida, yangi o'sgan bug'doyda, hamma oqsilli moddalarda uchraydi. Shizofreniya, herpes - virus kasalliklari bilan kasallangan kishilarga arginin ko'p oziqalar mumkin emas.

Hamma aminokislotalar seksual reaksiyalar, fermentlar sintezida, asab impulslarini o'tkazishda, ruhiy-emotsional fonni muntazamlashtirish qobiliyatlariga egadilar.

BFQ oziqaga: protoviti, biosheyp, kokteyl "slimsheyk"

Spirulina va boshqa tabiiy aminokislotalar manbalari.

Kalsiy - bu mikroelement organizmda muntazam fiziologik holatlarning o'tishiga va seksual tizimda o'ta muhim hisoblanadi.

Kalsiyning yetishmovchiligi libidoni susaytiradi, potensiya pasayadi, erkaklik fertil (urug'lantirish qobiliyati) holati pasayadi hamda vaqtdan oldin urug' chiqarish holatiga olib keladi.

BFQ oziqaga: Kalsiy medjik, altimeyt.

Seksual stimulyatsiya qiladigan minerallardan iborat moddalarni tashqi ishlatilishi Sharq tibbiyotida ko'p ishlatilgan: mineral smolasi, dur, oltin, kumush, mis, temir, qahrabo.

Xolesterin. Xolesterinni ko'pchilik holatlarda yomon modda sifatida odamlar tushunadi.

Shuning uchun xolesterin dushman emas, balki do'st. Xolesterin - testosteronning ishlab chiqarilishida asosiy sababchi hisoblanadi. Agar ovqat iste'moli kamayib ketgan bo'lsa, xolesterin miqdori tushib ketadi. Shunday qilib, xolesterin erkaklarning gormonal fonini ushlab turishda muhim ahamiyatga ega. Demak, sutkalik kaloriya berishning optimal oltin o'rtasini topish zarur.

Parafarmasevtika

Aloe vera. Bu o'simlikning davolash xususiyati 3 ming yil avval topilgan. Hozirgi kunda ko'pchilik mutaxassislar aloe verani afrodiziaklarning birinchi qatoriga qo'ymoqdalar. Hatto sanskrit tilida bu o'simlik "kumare" deyilib, "yoshlik" degan ma'noni anglatadi. Demak, bu o'simlik energiya berish xususiyatiga ega bo'lib, erkak va ayollarni yoshaytiradi. Buning asosiy siri reproduktiv sohaga qon kelishini kuchaytirishdir. Nafaqat gormonal balansni tiklab qolmay, g'orsimon tanaga qon kelishini kuchaytirib, erektsiya qobiliyatini oshiradi, bunda muhimki arteriyalarni sog'lomlashtiradi.

Aloening yana bir xususiyati mahalliy qon aylanishni yaxshilab, reproduktiv tizimdagi yallig'lanishlarda alohida ijobiy ahamiyatga ega. Uning reparativ (to'qimalarning butunligini tiklash) va proliferativ (hujayralarning bo'linishini stimulyatsiya qiladi) faolligi bo'lib, odamdagi immunoreaktiv faoliyatini ko'taradi.

Shuning uchun ham fitoterapevtlar prostatitni davolashda ko'p qo'llaydilar. Uning yana bir xususiyati, bu o'simlik oshqozon osti bezining Langerans orolchalari hujayralarining proliferatsiyasini stimulyatsiya qiladi. Bu juda muhimki, qandli diabet kasalligida jinsiy impotensiya kelib chiqishining sababchisidir.

Aloe - har xil kasalliklarni davolashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu o'simlik sharbati - shirasi erkak va ayollar uchun yoshlik eliksiri deyiladi. Uning mikroblarga, virus, zambrug'larga qarshi, hamda reparative xususiyatlariga ega bo'lib prostatit, uretritlarni davolashda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari Lahgergans orollari hujayralarini proliferatsiya qiladi. Shuning uchun qandli diabet kasalligini davolashda ham o'ta muhim hisoblanadi. Aloeni erkaklar va ayollar uchun yoshlik eliksiri deyiladi. Uning tavsiya

qiladigan dozasi 0,04-0,03 g/sutka, ya'ni 10-30 mg gidroksiantroxinon sutkada 0,1 g bir martalik dozasi bo'lib, kechqurun beriladi.

Aloe veraning ichimlik uchun ishlatiladigan dozasi (1-2 doza) 10-30 kungacha ichiladi. Uning oziqa sifatida ishlatilishida sharbati 1-2 dozada 2-3 marta bir haftada ichiladi. BFQning tarkibida bor: Aloe vera (tabiiy ichimlik), "Aloemanna", "immun 360",

Sarimsoq piyoz. Bu o'simlikning shifobaxshligi to'g'risida Amerikalik seksolog B. J. Robinson o'zining qo'llanmalarida yozib keltirgan. Seksual buzilishlari bo'yicha mutaxassis sifatida, kimda erektil disfunktsiya bo'lishni xohlamasa, o'z oziqa ratsioniga sarimsoqni qo'shishini taklif qilgan. Haqiqatan ham sarimsoq seksual hayotda ko'p qirrali hisoblanadi. Chunki ereksil faoliyatni ko'tarishda muhim qobiliyatga ega. Shunday qilib, sarimsoq g'orsimon tanadagi arterial tomirlarni kengaytirib, qon bilan to'lishini ta'minlaydi va ereksiyaning kuchaytiradi. Uning ichki tomirlarni kengaytirish faktori asosan tomirlar endoteliasida hosil bo'ladigan azot oksidiga bog'liq.

Demak, buning roli jinsiy faoliyatni stimulyatsiya qilishdan iborat.

Birinchidan, bu o'simlikdagi biologik aktiv moddalar lipidlar spektriga ijobiy ta'sir qilish qobiliyatiga egadir. Ular tomirlarda aterosklerotik qoplamalarning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Ma'lumki, 35-40 yoshlilarda erektil disfunktsiyaning kelib chiqish sababi ham shunga bog'liq.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, sarimsoq trigliseridlarning baland zichligini (yaxshi lipoproteidlar) ko'paytirib, yog'lar almashinuvi muozanatini ta'minlaydi. Qonni suyuqlashtirib, uning oqishini yaxshilaydi, qonning fibrinolitik faolligini oshiradi, hujayralar agregatsiyasini (qizil qonda) kamaytiradi. Sarimsoq aspirin kabi trombositlarning siklooksigenaza xususiyatini bloklay, antiagregant faolligini oshiradi. Muhim xususiyati, sarimsoq miya qon tomirlarida qon aylanishni yaxshilab, gipotenziv qobiliyatga ega. Arterial qon bosimini muntazamlashtirib, g'orsimon tanadagi arteriyalarning endoteliasini gipertoniya kasalligida bo'ladigan jarohatlardan saqlaydi, jinsiy gormonlar ishlab chiqarilishini muntazamlashtiradi.

Qonuniy holda libidoni (xohishni) kuchaytirib, seksual faollikni oshiradi. BFQ - sarimsoq bo'lishi shart, sarimsoq moyini 2-3 hafta har oyda qabul qilish mumkin.

Ginkgo biloba. Bu unikal o'simlik bo'lib, o'zining xotirani yaxshilash xususiyati bilan afrodisiakni qabul qiluvchilar tomonidan ham qadrlangan. Spazmolitik ta'sir qilishi bilan ginkgo biloba qon tomirlarini kengaytirishi, jinsiy a'zodagi g'orsimon tanadagi arterial tomirlarda qon bilan to'lishiga yordam berib, erkaklarda ereksiya faoliyatini kuchaytiradi. Ginkgo bilobani qabul qilgandan keyin 6-8 hafta o'tgach yuqorida keltirilgan ta'sir paydo bo'ladi.

Agar bu o'simlikning preparatini uzoq vaqt qabul qilinganda, seksual funksiyasining butunlay tiklanishi kuzatilgan. Ginkgo bilobani qabul qilishning alohida foydasi, odamda stress va tomirlar tizimidagi kasalliklar tufayli libido va potensiya buzilganda kuzatiladi. Shuni aytish kerakki, agar erektile buzilishlar 35-40 yoshlar atrofida kuzatilsa, mutaxassislar bilan maslahatlashish zarur.

BFQ oziqasi: Ginkgo biloba nanoklasteri bilan.

Muirapuama. Bu o'simlikni Braziliya indyslari "uila-pila-ata" deb nomlaganlar. Uning ma'nosi "nima yumshoq bo'lsa uni qattiq qiladi".

Uning asosiy ta'sir qiladigan moddasi afrodiziak-smola (mum) bo'lib, asab tizimini, libidoning kuchli stimulyatori hisoblanadi. Bundan tashqari uning faol moddasi buyrak usti bezining ishini faollashtirib, jinsiy gormonlar va katexolaminlarning sintezini kuchaytiradi. Bular organizmda energiya hosil bo'lishini, organizmning kuchini va umumiy energiyaning ko'payishini tezlashtiradi.

Bu preparatni 3-4 hafta qabul qilish, 2-3 hafta tanaffus bilan tavsiya etiladi. Uning qo'llanilishi asosan erektile faoliyatini stimulyatsiya qilishdir.

BFQ bo'lib, oziqa moddasiga "Aktivin" Enduro-maks.

Jenshen. Afrodiziaklar o'simliklari orasida shohi hisoblanib, 5 ming yildan beri tabobatda qo'llanilib kelinmoqda. Alohida Sharqda eng foydali o'simliklardan hisoblangan. Jenshenning ildizida glikozidlar, efir moylari, vitaminlar, pektin moddalari, yog' kislotalari, mikro-makroelementlar (temir, fosfor, oltingugurt, alyuminiy, kremniy) mavjud.

Tarkibida shunday biologik faol moddalarning boyligi o'simlikning hamma modda almashinuvi holatiga ta'sir qilishi amaliyotda tasdiqlangan.

Bir qator ilmiy ishlar va klinik tekshirishlar tasdiqlaydiki, jenshen testosteronning va boshqa androgen gormonlarining hosil bo'lishini, spermatogenezni faollashtiradi, jinsiy a'zolarga qon kelishini oshiradi. Bundan tashqari jenshen erkaklarning seksual faoliyatini ko'taradi.

Jenshen tarkibidagi BFQni qabul qilish tanaffusli kurslar bilan 2-3 hafta davom etishi zarur. Umumiy organizmning hayotiy tonusini oshirish uchun jenshen moddalarini kunning birinchi yarmida qabul qilish kerak.

BFQ jenshen tarkibli oziqa "Ko'k oltin".

Xren, limonnik, eleuterokokk - jenshenga yaqin xususiyatlarga ega. Bundan tashqari bir nechta (kola yong'og'i, pantokrin) adaptogenlar va immunostimulyatorlar ham markaziy

asab tizimini qo'zg'atish, periferik qon tomirlarini kengaytirish va qon aylanishini tezlashtirish uchun qo'llaniladilar. Bu moddalar jenshen kabi organizmni har xil noqulay hodisalarga moslashtirish xususiyatiga egadirlar.

Gul changi va asal suti. Fitoterapevtlar va xalq tabobatida "yuqori darajali oziqa" deb nomlanib, o'zlarida hamma oziqa moddalarni saqlaydi - aminokislotalar, nuklein kislotalar, mineral tuzlar va superoksiddismutaza bo'lib, qarilikning oldini oladi.

Gul changi dunyo sportchilari tomonidan o'zlarining kuchlari va bardoshini oshirishlari uchun qo'llaydilar, libido va seksual funksiyasini stimulyatsiya qilishlari uchun, asal suti esa eng effektli afrodiziaklar sifatida qo'llaniladi.

BFQ oziqasiga "Aktivin" "Ko'k oltin".

Asal. Bu modda nafaqat shamollashlar paytida kerak bo'lmay, hatto ko'p kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Fitoterapevtlar va xalq tabobatida tabiblar asalni xudolar ovqati qatoriga kiritadilar. Erotik oshxonalarida ham asalsiz bo'lmagan. Asal tabiatning mustaqil bir oziqa moddasi hisoblanadi. Uning shifobaxshligi o'simliklarning turiga, ulardan shira olinadigan geografik zonalariga ham bog'liq. Asal boshqa afrodiziaklar kabi seksual funksiyani oshirish xususiyatiga ega.

Shuning uchun ham bugungi kunda asalni erotik ovqat sifatida ishlatishgan. Asal asosida tayyolnadiyaning nutrisiologik oziqa moddalari o'ta muhim hisoblanganlar. Ana shu moddalarga spirulina briketi tayyolangan- biologic faol qoshimcha hisoblanadi. Uning takibi oqsil moddasiga boy va mikroelementlar bilan to'yingan suv o'tlari tabiiy B guruh vitaminlarga, lesitin hamda seksual funksiyani qo'zg'atuvchi- gvozдика, vanil, koriza moddalari bor.

BFQ oziqaga "Artishok nanoklasteri bilan".

Yohimbe daraxtining po'stlog'i. (Qora daraxt)

Bu manba tarkibida alkaloid yohimbe, α -adrenoblokator bo'lib, orqa miya markazlarini tormozlovchi faoliyati orqali penial arteriyalarida qon bilan to'ldirishni amalga oshiradi. Bir vaqtning o'zida yohimbe bosh miya po'stlog'iga va po'stlog'osti markazlariga ta'sir qilib, qo'rqish kabi sezgilarni yo'qotib, ruhiy-emotsional holatni yaxshilaydi.

Imbir, mojjevelnik, podorojnik - shu kabi o'simliklar yallig'lanishga qarshi va uroseptik moddalar guruhiga kiradilar. Ular erkaklar reproduktiv tizimiga muloyim ta'sir qiladi. Agar jinsiy disfunktsiya infeksiya faktor sababchi bo'lsa, alohida ularning o'rni katta. Bu o'simliklar qon tomirlarini kengaytirib, spazmolitik va gormonlar fonini yaxshilaydi.

Bular BFQga kiradi "O'tlar yig'indisi №11".

Laminariya. Bu o'simlikning umumiy nomi dengiz karami - juda yuqori oziqa moddasi bo'lib, bir qator o'ta muhim oziqa moddasi qatorida hisoblanadi. Laminariya dengiz suvida

o'sib, odam hayoti uchun juda kerakli moddalarni - yodni saqlaydi, uning konsentratsiyasi hujayralarda 100 ming marta dengiz suvidagiga qaraganda ko'p.

Qadim zamonlarda Sharqiy Osiyo, Xitoy, Yaponiya mamlakatlarida ovqatga aralashtirib ko'p kasalliklarga qarshi qo'llanilgan. Dengiz karamini arterial qon bosimi baland bo'lganda, tomirlarda ateroskleroz rivojlanganda, qonda qand miqdori oshganda, qalqonsimon bez kasalliklarida ishlatilgan.

Bundan tashqari laminariya ajoyib afrodiziak. Laminariyaning ta'siri undagi organik yod moddasi borligi uchun kalsiy, temir, oqsillarning so'rilishini yaxshilaydi. Yodning ta'sirida bir qator muhim fermentlar, gormonlar faollashadilar, tomirlar tonusi pasayadi, qonning yopishqoqligi va xolesterin miqdori pasayadi, arteriyalarda qonning to'lishi bir vaqtning o'zida penial tomirlarda yuz beradi.

Laminariyaning yana o'sma hujayralariga qarshi ta'siri bor. Dengiz karami o'sma hujayralarida mutatsiyalar sonini pasaytiradi, ayniqsa reproduktiv tizimda o'ta muhim xisoblanadi. Bu o'tlarni 2-4 tabletka holatida bir sutkada qabul qilinadi

Hozirgi kunda laminariyaning shifobaxsh xususiyatiga asosan nutrisilogik moddalar qatorida ishlatilmoqda. Masalan, bularga "Spirulina briketda" - BFQda oqsilga boy, to'yingan mikroelementlarga boy, ko'k suv o'tlari, gul shirasi, tabiiy B guruh vitaminlarini tarkibida saqlovchi moddadir. Bu modda ham seksual faoliyatni qo'zg'atadi.

BFQda oziqaga "Spirulina briketda".

Karam - Qadimgi Rimda seksual qo'zg'alishni o'yg'otadigan karamning ko'p turlari ma'lum bo'lgan. Hozirgi kunda bu sir to'liq ochilgan. Karamdagi boshqa biologik faol ingredientlar testosteronning effektiv ta'sir qilishini kuchaytiradilar. Bir vaqtning o'zida organizmdagi jinsiy gormonlarning balansini ta'minlaydi.

Karamning har xil turi va boshqa o'zlarida gormonal fonga yaxshi ta'sir ko'rsatadigan o'simliklardan spinat, petrushka, muhim ko'k kokteyl-Fito-energiyada yig'ilgan. Ko'k, qizil, to'q yashil rangli suv o'tlari oziq-ovqat moddalariga qo'shilganda endokrin tizimga ijobiy ta'sir qiladi. Suv o'tlari yod moddasiga boy bo'lib, qalqonsimon bez gormoniga kerakli modda hisoblanadi. Bundan tashqari oqsil va rux moddalari bo'lib, testosteronning sintezini va reproduktiv a'zolar faoliyatini kuchaytiradi.

BFQ oziq-ovqatda: "fitoenergiya".

Artishok. Bu ekzotik sabzavotlardan bo'lib, erkaklarning reproduktiv tizimiga to'laqonli shifobaxsh ta'siriga ega ekanligi aniqlangan. Shuning uchun ham eski yilnomalarda u "jinsiy a'zolari isitadigan" sabzavot sifatida esga olingan. Uning bu xususiyati, ya'ni artishokning reproduktiv sohalardagi qon aylanishini ko'paytirish qobiliyati bilan bog'liq.

Artishokning yana antioksidant xususiyati bo'lib, spermatogenezga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Seksual sohadagi buzilishlarning sabablaridan biri qandli diabet va ateroskleroz hisoblanadi. Artishok esa qondagi qand va xolesterin miqdorini tushirish qobiliyatiga ega. Chunki uning tarkibida sinarin, inulin va boshqa bir qator moddalar bo'lib, g'orsimon tanadagi tomirlarni sog'lomlashtiradi.

Seksual buzilishlarda hamda jinsiy disfunktsiyalarda, ayniqsa yallig'lanish holatlarida, artishokning yuqori davolovchi xususiyati borligi uchun ovqatlik moddalarga qo'shib ishlatish o'ta muhim.

BFQ oziqaga Artishok nanoklaster bilan qo'llaniladi.

Bug'doyning yangi o'sgan paytida pishiralidigan sumalak - eng muhim foydali oziqa sifatida juda foydalidir. Ular eng muhim "seksual" vitamin E va oktakosanolga boy. Ular antioksidantlar hamda spermatogen faktorlariga boydir. Shuning uchun ham bug'doyning endi o'sgan payti seksual faoliyatni va fertil faoliyatini optimallashtiradi.

BFQ oziqaga "super oziqa"

Afrodiziaklar - afrodiziaklar uchun sepiladigan quyidagi o'simliklar mavjud: vanil, gvozdika, imbir, rozmarin va zira.

Nutrisiologik moddalar

Enduro-maks - katta muvaffaqiyat bilan situatsion erektsil disfunktsiyani korreksiya qilish uchun ishlatish mumkin. Uning tarkibida muira puama bor bo'lib, markaziy asab tizimini, buyrak usti bezlarini stimulyatsiya qiluvchi, g'orsimon tanani qon bilan to'ldirishda yaxshi vosita sifatida ishlatish mumkin. Uning tarkibidagi faol moddalar libidoni kuchaytiradi, emotsional holatni yaxshilaydi, shuningdek ayollar uchun ham juda kerakli hisoblanadi.

Enduro-maks o'zining ingredientlar tarkibiga asosan kuchli enerjayzer bo'lib, umumiy organizmning energiyasini oshiradi.

Sitromaks - shu moddaning tarkibiga kiradi, to'qimalar uchun qo'shimcha energiya manbai bo'lib hisoblanadi. Karnitin - yog' kislotalarini achitib va erkin energiya hosil qiladi, yog'larning to'planishiga yo'l qo'ymaydi. Xrom - shu modda tarkibida bo'lib, to'qimalarda glyukozaning utilizatsiyasiga, karbonsuvlar va lipidlar almashinuviga yordam beradi. To'q qizil suv o'tlaridagi yod moddasi qalqonsimon bezi gormonini stimulyatsiya qilishga muhim ahamiyatga ega. Bu bezning gormoni organizmdagi asosiy modda almashinuvini regulatsiya qiladi, ularning faolligi erkaklar va ayollarda reproduktiv tizimga ta'sir qiladi. Ana shu moddaning tarkibi ingredientlarga boy bo'lganligi uchun, erektsil buzilishlari bilan, ayniqsa qandli diabet, ortiqcha semizlik, ateroskleroz kuzatilgan erektsiyaga juda ham kerakli ko'rsatma bo'ladi.

Situatsion biostimulyatorlar bilan birga, BFQning manbai adaptogen va stimulyatorlar (jenshen, yong`oq, asalarichilik moddalari) activin, diozin 7/24, hamda sarimsoq yoki ginkgo bilobani qo'llash mumkin.

Aktivin - bu ham muhim moddalar qatoriga kiradi, jinsiy faoliyatni kuchaytiradi. Bundan tashqari g'orsimon tanani qon bilan to'ldirishda muira puama, aktivinlar orasida muhim natural adaptogenlar: eleuterokokk, jenshen, asalchilik moddalari ham androgenlar, spermatogenez, ruhiy-emotsional holatlarni va immunitetning balansini saqlaydi.

Aktivin - bu ruxning to'liq baholanadigan manbai hisoblanadi, fermentatsiya tizimiga kirib, fiziologik holatlarni faollashtiradi. Masalan: ruxning etishmovchiligi spermatozoidlarning sonining pasayishiga, libido, potensiya va testosteronning defitsitiga olib keladi.

Ular energiya hosil qilish va to'qimalarni antioksidant himoya qilish uchun. To'qimalarni 2-4 haftalik kursida qabul qilish, keyin tanaffus qilib, situatsion 2 kapsuladan 2-3 marta bir sutkada qabul qilish mumkin.

Quyidagi narsalarga e'tibor qilish kerak.

1-35-50 yoshli erkaklar uchun.

- Tana og'irligini saqlash
- Jismoniy faollik 60 minut har kun
- Xolisterin sathini aniqlash- lipoproteinlarning past va yuqori zichligini aniqlash
- Prostata bezini va tomirlarini YTTqilish, 1-2 marta bir yilda
- Moyaklarni o'zi tekshirib turish 2-3 oyda bir marta
- Qondagi infeksiya chaqiruvchilariga tekshirish

Xulosa

Shunday qilib hayot – odamga berilgan eng katta in'om ekanligini tushundik. Ana shu hayotni chiroyli, sermazmunli qilib o'tkazish har bir kishining o'ziga bog'liq ekan.

Buning uchun har bir kishi o'zining ruhiy holatini to'g'ri idora qila olishi kerak. Masalan jahli chiqqanda o'zini bosishi, qaltis vaziyatlarda shoshib, noto'g'ri qaror qabul qilmasdan vazminlik bilan mulohaza yuritishi, shuningdek o'zaro munosabatlarda odil bo'lishi kerak.

Hozirgi zamondagi holatlarni hisobga oladigan bo'lsak bizlarning ko'pchiligimizda stress holati kuzatilmoqda. Ana shu stress holatidan keyin yurak-qon tomir kasalliklari, oshqozon-ichak tizimida salbiy o'zgarishlar hatto qandli diabet kasalligining paydo

bo'lganligini sezmay ham qolamiz. Stressni engishimiz uchun sabrli bo'lishimiz, o'zimizni tinchlantira olishimiz, yashab turganimizga shukronalik qilishimiz zarur deb hisoblaymiz. Ana shundagina biz ruhiy salomatlikka erishamiz.

Sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda to'g'ri ovqatlanishni, uning tartib va qoidalariga rioya qilishimiz zarur. Bu borada biz buyuk bobokalonimiz Abu Ali IBN Sino hazratlarining ovqat istemol qilishda uning tanaga foydaligini hisobga olish zarurligi mo'g'risidagi o'gitlarini bilishimiz kerak .

Tarkibida vitaminlari ko'q oziq-ovqat mahsulotlari biz uchun foydali hisoblanadi. Qattiq qovrilgan ovqatlar nechog'lik mazali bo'lmasin foydaligi kam, chunki vitaminlar qovurish paytida parchalanib ketadi. Ko'proq meva – sabzavotlarni xomligicha istemol qilish, ovqatlarni, dimlab yoki bug'lab pishirish tana salomatligi uchun foydalidir.

Tibbiyot asoschisi Gippokrat "Egan ovqatingiz dori, istemol qilgan doringiz ovqat bolishi kerak" deganlar.

Ba'zi xastaliklarga ko'p siqilishi yoki noto'g'ri ovqatlanish, shuningdek, kam harakat yoki biror yuqumli kasallikni yuqtirib olish sabab bo'ladilar. Ayrim holatlarda harxil salbiy odatlar ham kasallikning kelib chiqishiga olib keladilar.

Shunday qilib kasallikdan saqlanish uchun aynan uning nima sababdan dardga chalinganimiz haqida o'ylab ko'rishimiz zarur.

O'zimizni yaxshi ko'rsak va sog'ligimiz uchun qayg'ursak, albatta, sog'lom turmush tarsi qoidalariga rioya qilishimiz kerak. Hozirgi kunda kishilarning seksual holatining yuqori darajada bolishi ularning sog'lig'iga va hayotining yaxshilanishiga va uzoq umr ko'rishi uchun ta'siri hammaga ma'lum.

Ruhiy holat va stress darajasining ko'tarilishi jinsiy holatninig pasayishiga, hatto yo'qolishiga olib kelishi infarkt miokard kasalligidan ham xavfli bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, stress paytida oziqlanish sifatsiz bo'lganda, organizmda gormonal fonining buzulishi chuqurlashadi. Ma'lumki, ayrim nutrientlar gormonal holatni yaxshi tartibga solib turadi. Masalan shirinliklar spirtli ichimliklar erkaklarda estrogen va prolactin gormonlarini oshiradi. Bu holatning o'zi testosterone gormoni miqdorining pasayishiga olib keladi. Buning ustiga turli yomon odatlar va kam harakatlik ham seksual faoliyatning buzulishiga olib keladi.

Hozirgi zamonoviy dietologlar, nutrisiologlar to'g'ri tanlangan oziqa moddalari, nutrientlar, biologic faol moddalarning kishilarda seksual faoliyatini yaxshilashlarini tushuntirmoqdalar. Stresslarga, ruhiy-hayojon holatlarga chidamli oziq-ovqatlar tarkibida shunday foydali omillar borki, ularni davolash amaliyotiga kiritish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari , agar gipodinamiya holati mavjud kishilarda semirish

boshlanadi. Bu holatning o'zi erkaklar organizmidagi gormonal fon muvozanatiga salbiy ta'sir qiladi.

Shunday qilib, bugungi kunda bu muammo o'z dolzarbligini yo'qatgani yo'q, aksincha, tobora keng tarqalayotgan muhim ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Ana shu holatlarni hisobga olgan holda sog'lom turmush tarzini tashkil qilishimiz uchun nutrisiologiyani bugungi kunda erishgan yangiliklarini hayotimizga tatbiq qilishimiz zarur deb hisoblaymiz.

Qo'llanilgan adabiyotlar

- 1 Артифексов С.Б., Рыжаков Д.И. Диагностика и лечение заболеваний половой сферы у мужчин. 2003; «Медицинская книга», 236
- 2 Верткин А.Л. Эректильная дисфункция в практике врача-кардиолога. РМЖ 2003; 11 (19): 1107-1113.
3. Виноградова Е.А., Гажев Б.Н., Виноградов В.М., Мартынов В.К. Практическая фито-терапия// С-П. - 1998. - 638 с.
- 4 Дедов И.И. Возрастной андрогенный дефицит у мужчин. Практическая медицина -2006г. 240 стр.
5. Дмитриев Д.Г., Гамидов С.И., Мазо Е.Б., Овчинников Р.И. Новый подход к повышению эффективности фармакотерапии эректильной дисфункции. Тер. Архив 2002; 10: 75-77.
6. Ефремов Е.А., Дорофеев С.Д. Медикаментозная терапия эректильной дисфункции. Русский Мед Журн 2003; 11 (24): 1373-1340.
7. Жуков О.Б. Ультразвуковая семитика васкулогенной эректильной дисфункции в выборе метода лечения и профилактики. Дисс.канд. мед наук. М - 2002 - с. 187
8. Жуков О.Б., Зубарев А.Р., Кибец С.А. Виагра-тест в ультразвуковой семиотике и прогнозе лечения больных с эректильной дисфункцией. Медицинская книга. Москва. - 2005г. 57с.

9. Клинические рекомендации + фармакологический справочник / Под ред. И.Н. Денисова и др. - М.: ГЭОТАР-МЕД. 2004. 1184 с. - (Серия «Доказательная медицина»).
10. Коган М.И. Эректильная дисфункция. Книга. Ростов-на-Дону. - 2005г. 336 стр.
11. Мазо Е.Б., Зубарев А.Р, Жуков О.Б. Ультразвуковая диагностика васкулогенной эрек-тильной дисфункции. М. Медицина, 2003, с. 112
12. Мантак Ч., Дао Х. Секреты «Даодэ-цзина»: Живая мудрость древнего учения / Перев.с англ. - М.: ООО Издательство «София», 2007. - 304 с.
13. Мантак Ч., Абрамс А.Д. Даосские секреты любви / Перев. с англ. - М.: ООО Издательство «София», 2007. - 288 с.
14. Петров С.Б., Лоран О.Б., Велиев Е.И.. Современные аспекты лечения эректильной дисфункции. Consilium-medicum.2003; 5 (7): 419-422.
15. Потемина Т.Е. Влияние внешних факторов на мужскую репродуктивную систему. Практическая медицина. - 2006г. 240с.
16. Пушкарь Д.Ю. Эректильная дисфункция: кардиологические аспекты. «МЕДпресс-информ». 2005. 144, с илл.
17. Тепляков А.Т., Пушникова Е.Ю. и др. Сексуальная дисфункция у больных с заболе- ваниями сердечно-сосудистой системы (обзор). Тер. Архив 2002;10: 77-80.
18. American association of clinical endocrinologists medical guidelines for clinical practice for the evaluation and treatment of male sexual dysfunction: a couple's problem-2003 update. AACE Male Sexual Dysfunction Task Force (Co-Chairman: Guay A.T. and Spark R.F.). Endocrine Practice, 2003; 9 (1): 77-95.
19. Ferrario C.M., Levy P. Sexual dysfunction in patients with hypertension: implications for therapy. J. Clin. Hypertens. (Greenwich). - 2002. - Vol. 4, N 6. - P. 424-432.
20. Kuritzky L. Counseling the patient with erectile dysfunction: a primary care physician per-spective. J. Am. Osteopath. Assoc. - 2002. - Vol. 102 (12 Suppl 4). - S7-11.
21. Nusbaum M.R. Erectile dysfunction: prevalence, etiology, and major risk factors. J. Am.Osteopath. Assoc.-2002.-Vol. 102(12 Suppl 4). - S1-6.
22. Prisant L.M. Fixed low-dose combination in first-line treatment of hypertension. J. Hy-pertens. - 2002. - Vol. 20, Suppl 1. - S11-19.
23. Roth A., Kalter-Leibovici O., KerbisY. Prevaence and risk factors for erectile dysfunction in men with diabetes, hypertension, or both diseases: a community survey among 1,412 Israeli men. Clin. Cardiol. - 2003. - Vol. 26, N 1. - P. 25-30

24. Speel T.G., van Langen H., Meuleman i sahe risk of coronary heart disease in men with erectile dysfunction. *Eur. Urol.* - 2003. - 70-44(3). - P. 366-371.
25. Afshin A., Sur P. J., Fay K. A., Cornaby L., Ferrara G., Salama J. S., et al. *Health effects of dietary risks in 195 countries, 1990–2017*. *The Lancet.* – 2019. – Vol. 393, No. 10184. – P. 1958–1972.
26. Willett W. C., Rockström J., Loken B., Springmann M., Lang T., Vermeulen S., Garnett T. *The role of nutrition in the prevention and management of chronic diseases*. *Annual Review of Public Health.* – 2021. – Vol. 42. – P. 1–23.
27. EAT-Lancet Commission. *Food in the Anthropocene: healthy diets from sustainable food systems*. *The Lancet.* – 2019. – Vol. 393, No. 10170. – P. 447–492.
28. World Health Organization. *Healthy diet: fact sheet*. WHO Publications. – 2020. – Available at: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/healthy-diet>
29. FAO & WHO. *Sustainable healthy diets: guiding principles*. Food and Agriculture Organization of the United Nations. – Rome, 2019. – 44 p.
30. Harvard T.H. Chan School of Public Health. *The Healthy Eating Plate*. – Boston, 2022. – Available at: <https://nutritionsource.hsph.harvard.edu/healthy-eating-plate/>
31. Rozmiarek M., Nowak M., Wójcik J. *The role of nutrition in maintaining the health and physical condition*. *Nutrients.* – 2024. – Vol. 16, No. 4. – P. 1–15.
32. Santos L., Carvalho M., Pinto A. *The impact of nutrition and lifestyle modification on health*. *Journal of Preventive Medicine.* – 2022. – Vol. 58, No. 2. – P. 110–124.
33. Gropper S., Smith J., Carr T. *Advanced Nutrition and Human Metabolism*. – 8th ed. – Boston: Cengage Learning, 2021. – 710 p.
34. U.S. Department of Health and Human Services, U.S. Department of Agriculture. *Dietary Guidelines for Americans 2020–2025*. – Washington, D.C.: Government Printing Office, 2020. – 164 p.
35. National Health Service (NHS). *Eating a balanced diet*. – London: NHS Digital, 2023. – Available at: <https://www.nhs.uk/live-well/eat-well/how-to-eat-a-balanced-diet/eating-a-balanced-diet/>
36. FAO. *A healthy diet: fact sheet for educators*. – Rome: Food and Agriculture Organization, 2018. – 8 p.

37. Kowalski P., Li Y., Ahmed F. *Climate impacts and monetary costs of healthy diets worldwide*. Environmental Research Letters. – 2025. – Vol. 20, No. 5. – P. 1–14.
38. Chen D., Wang R., Zhang Y. *Nutrition estimation for dietary management: a transformer approach with depth sensing*. Journal of Computational Health Informatics. – 2024. – Vol. 12, No. 3. – P. 205–219.
39. Martins G., Oliveira C., Pereira F. *Comparative analysis of graphic models for enhancing nutrition education*. Public Health Nutrition. – 2025. – Vol. 28, No. 6. – P. 780–792.
40. WHO European Regional Office. *Healthy nutrition and physical activity: essential components of a healthy lifestyle*. – Copenhagen: WHO Europe, 2023. – 56 p.

Mavzu bo'yicha internetdagi saytlar:

<http://www.moodle.sammi.uz>

<http://medi.ru/doc/83>.

htm <http://www.rmj.net/index>

htm <http://www.consillium-medicum.com/media/refer>

<http://www.mediasphera.aha.ru>

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.doktor.ru>